جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2024-yil 6-dekabr
№ 50(50)
www.jadid-media.uz

TARIX VA TAQDIR

## BO‘RONLARGA BO‘YIN EGMAGAN AYOL

Qatag‘on – bu vahshat va qo‘rquvning jirkanch basharasi. U nafaqat shaxs, balki tarix, adolat va millatning ma’naviy ildizlarini qirqib tashlaydi. Mamlakatimizda 1920-yil oxirida boshlangan qatag‘onning sovuq shamollari 1938-yilda qattol bo‘ronga aylandi. Bu davrda inson qadr-qimmati toptalib, mehr-shafqat tuyg‘usi izsiz yo‘qoldi. Minglab begunoh insonlar “xalq dushmani” tamg‘asi bilan ayovsiz jazolandi. Arxiv hujjatlariga qaraganda, 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha jami 10 700 nafar yurtdoshimiz qamoqqa olingan. Ular asosan aql va iste’dod egalari: yozuvchi, olim, jadid, davlat arbobi, harbiy, diniy ulamo, mustaqil xo‘jalik egalari, savodi bor, hurriyatni istagan kishilar edi.

*(Davomi 7-sahifada).*

IFTIXOR

# KONSTITUTSIYANING DA’VATKOR RUHI, SHUKUHI




**O‘tgan yilning bahori mamlakatimiz tarixi va xalqimiz hayotida unutilmas va shukuhli voqealarga boy bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Konstitutsiyasini eng zamonaviy talablar maqomida yanada takomillashtirish maqsadida e’lon qilingan referendum munosabati bilan yo‘llangan taklif-mulohazalar oqimi qizg‘in tus oldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzurida tashkil etilgan maxsus guruh a’zolarining qo‘li qo‘liga tegmas, mamlakatimizning turli viloyatlari, shahar va tumanlaridan paydar-pay kelib turgan xat-xabarlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, tasniflash, guruhlashtirish va ularni o‘rnatilgan tartibda ishchi guruhiga taqdim etish o‘ta mas’uliyatli vazifa edi.**

Xatlarda bayon etilgan fikr-mulohazalar alohida mavzu, lekin aksariyat maktublardagi bir o‘xshashlik – turli manzillardan, turli yosh va jinsdagi vatandoshlarimiz nomidan yo‘llangan xatlar matnidagi “shaxsiy fikrim”, “shaxsiy qarashim”, “shaxsiy nuqtayi nazarim” mazmunidagi ta’kidli iboralar e’tiborni tortmay qo‘ymasdi. Yuzaki qaraganda, oddiy va tabiiy tuyulgan mazkur ta’kidlar aslida nihoyatda jiddiy ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ega edi.

*(Davomi 2-sahifada).*

QUTLOV

**Akademik Abdulla A’zamov haqida yozish oson emas. Bu ishga kirishmoqchi bo‘lgan kishi kamida ustoz Alibek Rustamiydan uzoq yillar saboq olgan bo‘lishi kerak. Va yana: bu olim haqida bir nima yozmoqchi bo‘lgan kishi niyatini oshkor qilmagani ma’qul. Boshqalarni bilmadim, ammo Abdulla aka eshitib qolsa, quyuq qoshlarini chimirib, taqa-taq to‘xtatadi. “E, qo‘ying, boshqa ish yo‘qmi?”, deydi.**

# IJODNING QO‘SH QANOTI

Besh muchalga to‘lganida do‘st-qadrdonlariga dasturxon yozgani yodimizda. O‘shanda Abdulla aka har birimizning qo‘limizga bir varaqli yo‘riqnoma tutgan, unda dasturxonga o‘tirib, qorin to‘yganidan keyin bir nimalarni bahona qilib ketvormaslik, yaxshi kayfiyatda zarur-zarur gaplardan gapirib o‘tirish, ammo zinhor “yubilyar” degan so‘zni ishlatmaslik, ma’ruza qilmaslik, ortiqcha hamd-u sanoga berilmaslikni qattiq tayinlagan edi.

Bu ham mayli. Akademik unvoniga sazovor bo‘lgan do‘stimiz yetmish besh yoshga to‘lganida esa bu yorug‘ olam dunyo maqomini olganidan beri birorta “yubilyar”ning xayoliga kelmagan ishni qildi: Konservatoriyaning muhtasham zali taklif etilganlar bilan to‘ldi. Olim tavalludining 75 yilligiga bag‘ishlangan rasmiy tadbir avvalida sahna pardalari asta ko‘tarilib, Abduhoshim Ismoilov boshchiligidagi san’atkorlar hazrat Navoiyning umr shomida Allohga iltijosini zikr-munojot yo‘lida favqulodda mahorat bilan ijro etdi.

*Yo Rab, o‘lg‘on chog‘da jonim*
*jismi vayrondin judo,*
*Ul bo‘lub mundin judo,*
*Sen bo‘lmag‘in ondin judo...*

*Naqdi jon chiqqanda iymon*
*gavharin ko‘nglumga sol,*
*Aylag‘il jondin judo,*
*lek etma iymondin judo...*

Yuraklarni sel qilib yuborgan ijrodan so‘ng sahnaga... Abdulla akaning o‘zi ko‘tarildi va kutilmaganda yetmish besh yilligi qolib, buyuk kompozitor Lyudvig Van Betxovenning hayoti, ijodiy merosi, dunyoga mashhur 5-simfoniyasining yaratilish tarixi, 35-38 yoshlarida eshitish qobiliyati yomonlashganiga qaramay, simfoniyani yozib tugatgani, asar ilk bor 1808-yil 22-dekabr kuni Venadagi mashhur “An der Viy” teatrida qulog‘i deyarli eshitmayotgan muallifning dirijyorligida (orkestr a’zolaridan biri unga ishora bilan takt berib turgan) ijro etilgani haqida maroq bilan so‘zlay boshladi. “Simfoniya inson qalbining favqulodda chuqur va sirli dunyosini ochib beradi. Goh yoqimli lirik, goh mahzun va g‘amnok, goh murakkab falsafiy, keyin esa kuchli dramatik holatlar asar kompozitsiyasining bag‘oyat mukammalligini ta’minlaydi...

Simfoniyaning boshlanishi bamisoli eshik qoqayotgan ajaldan darak beruvchi ogohlik qo‘ng‘iroqlariga o‘xshab ketadi”.

Abdulla aka og‘ir-bosiq, ammo ta’sirchan ohangda, biroz hayajon bilan so‘zlardi. Menga yonma-yon o‘tirgan taniqli san’atkorlardan biri: “Bu domla musiqashunos ekan-ku, menga matematik olim deyishgandi”, dedi men tomon biroz engashib.

*(Davomi 3-sahifada).*

TAHLIL

# HAMMA O‘QIYAPTI. O‘QING!



## QAYSI KITOBNI O‘QIYAPSIZ?

**Ha, savolni aynan shunday bermoqchiman: siz qaysi kitobni o‘qiyapsiz? “Siz kitob o‘qiysizmi o‘zi yoki hozir o‘qiyapsizmi?”, deb so‘ramoqchi emasman. Men o‘qiyapman va ishonaman, umid qilamanki, siz ham o‘qiyapsiz, boshqalar ham o‘qiyapti.**

**Donolar aytadiki, zamona aynidi, deya nolib yuruvchilar zamona aynishida ayblidirlar. Eng noinsof kimsalar “Odamlar noinsof bo‘lib ketdi” deb yanuvchilar orasida uchraydi. O‘g‘ri “hamma o‘g‘ri” deb o‘ylaydi. Kitob o‘qimay qo‘ygan odamlar “hech kim o‘qimay qo‘ydi” degan fikrda bo‘lsalar, ehtimol.**

Ushbu tahliliy maqolani tayyorlashga keyingi vaqtlarda turli ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda “odamlar kitob o‘qimay qo‘ydi”, degan noxush fikrning keng tarqalayotgani sabab bo‘ldi. Albatta, bunga siz ham guvohsiz. Kunda-kunora chiqib turadigan bunday nolishlarni kuzatib: “Nahotki, azal-azaldan yuzlab yetuk allomalarni yetishtirib, bashariyat taraqqiyotiga unutilmas hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi bugun mana shunday buyuk vorisiylikdan mosuvo qolgan – insonni komillik sari eltuvchi eng muhim vosita bo‘lmish mutolaadan voz kechib, kitob o‘qimay qo‘ygan bo‘lsa?” degan achchiq savol tug‘iladi.

Axir, bizning ota-bobolarimiz, atoqli ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat faxrlanib yozganidek, **“har bobda, ayniqsa, ilm va ma’rifatda olam ahli uchun ibrat va namuna bo‘lganlar – ularning ilm-u ma’rifatlari “qiyl-u qol”ning takrori va hoshiyaxonligi bo‘lmay, balki ular har bir ilmning asosiy mohiyatini yaxshi bilib, undan malaka va mahoratga ega bo‘lib, mo‘tabar kitoblarning ta’lif va tasnifiga qodir bo‘lganlar”** emasmi?!

***“O‘zingiz to‘g‘ringizda yomon gapirmang, boshqalar so‘zingizga ishonishlari mumkin”,*** deydi fransuz adibi Andre Morua.

Bugun O‘zbekistonga ma’rifat istab kelayotgan, xalqimizning milliy an’analariga, uning shonli tarixiga qiziqib, shu yerda tahsil olayotgan yoki ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan, ona tilimizning go‘zal jozibasiga havas qilib, uni o‘rganayotgan qanchadan qancha xorijiy do‘stlarimiz bor. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan diplomatlar, tadbirkorlar va boshqa sohalar vakillari bor.

Ana endi tasavvur qiling: kundalik axborot vositalarida bodrab chiqib turgan yuqoridagi kabi fikrlarni o‘qib, ularning biz haqimizdagi tasavvurlari o‘zgarmaydimi? Hadeb odamlar kitob o‘qimay qo‘ydi, deb yozg‘iraversak, chetdan kuzatgan odam bular g‘irt savodsiz, omi xalq ekan, deb o‘ylamaydimi? Taraqqiyotdan, madaniyatdan yuz o‘girgan bu qanday jamiyat bo‘ldi, deya hayratga tushmaydilarmi?

Nahotki, shu fikrlar rost bo‘lsa? Nahotki, kitob o‘qimay qo‘ygan bo‘lsak? Agar chindan ham shunday bo‘lsa, nima uchun o‘qimay qo‘ydik? Kitoblar yetishmaydimi? Yaxshi kitoblar yo‘qmi?

Keling, bu savollarga birgalikda javob izlab ko‘raylik, mavjud vaziyatga tahliliy nazar tashlaylik.

*(Davomi 4-5-sahifalarda).*

IBRAT



# NAVOIYLIK NOVVOY OPA

**Shahnoza oyning o‘n beshi qorong‘i, degan gap haq rost ekaniga imon keltirganiga ko‘p yillar bo‘ldi. U pulini to‘lolmay, ijara uylardan quvilgani, ikki go‘dak bolasi bilan haftalab eski “Moskvich” ichida yashagan kunlarini eslarkan, Xudoning sinovidan yorug‘ yuz bilan o‘tdim, deydi. Lekin avtoulov panasida yelkalari silkinib-silkinib yig‘layotgan turmush o‘rtog‘ini eslasa, baribir, eziladi. Biroq shu onda ixlos bilan taqdiriga shukr aytadi. Chunki bu kunlar taqdir sinovi ekanini o‘sha payt ham ich-ichidan sezib turardi.**

Novvoy eriga qo‘shilib tandir-tandir non yopdi. Issiq nonlarni aravachada ko‘p qavatli uylar oralab sotdi. Fasllarni unutdi, xamir qordi, non yasadi. O‘n yillab eski kiyim kiydi. Birovning eskisini kiyganidan o‘kinmadi, boriga shukr qilib yashadi...

Bugun uning “Baraka non” MCHJsida 200 kishi ishlaydi. Oxirgi o‘n oylik hisob-kitoblariga ko‘ra, yil boshidan buyon o‘n ikki milliard so‘m mablag‘ aylantiribdi.

Ha, mehnat insonni qadrlashi rost. Karmanadagi “Baraka non” MCHJni bilmaydigan navoiylik yo‘q bugun. El dasturxonidagi issiq va bo‘rsildoq nonlarni qo‘ya turaylik, ular bugun chet ellarga sayohatga ketayotgan hamyurtlarimiz bilan dunyo yuzini ko‘rmoqda.

*(Davomi 3-sahifada).*

ONAJONIM – TABIAT

# BIZNI SHOIR QILGAN GULLARNING SO‘ZI...



**Men Jayhunbo‘yi taraflarda ulg‘ayganman. Tengdoshlarim qatori enalarimizning:**

**– Hoy, g‘o‘ra teraman deb daraxtlarning shoxini sindirmanglar. Ular oddiy chiviq emas. Joni bor, nafas oladi. Qarsillatib sindirsalaring, xuddi qo‘llaring singanidaydi, ularning ham joni og‘riydi, – degan tanbehlarini eshitardik. Lekin bola ekanmiz-da, u qulog‘imizdan kirib, bunisidan chiqib ketardi. Maktabdan qaytishda papkalarimizni bir chekkaga qo‘yardik-da, avval nimtatir g‘o‘ralarga, so‘ngra navdalarida durday tizilgan tutlarga osilardik. O‘g‘il bolalar daraxtga tirmashib ketar, biz qo‘limiz yetgan shoxlarni qayirardik. Sinadimi, yo‘qmi, istagimizga yetsak, bas.**

**Yana o‘sha enalarimiz (balki yana kimlardir):**

**– Suvga axlat tashlamanglar, uvoli bor, – degich edi.**

*(Davomi 2-sahifada).*

# KONSTITUTSIYANING DA’VATKOR RUHI, SHUKUHI

Boshlanishi 1-sahifada.

Gap shundaki, jamiyatda kechayotgan ulkan islohot jarayonlari kishilarning ruhiyatida, tafakkurida, dunyoqarashida favqulodda o‘zgarishlar yasashi g‘oyatda jiddiy masalalardan hisoblanadi. 2017-yilning ilk kunlaridan qizg‘in tus olgan islohotlar nafaqat mamlakatimiz, jamiyatimiz va fuqarolarimiz hayotida, balki katta-yu kichik har bir vatandoshimiz dunyoqarashida o‘ziga xos ruhiy evrilishlar jarayoni boshlanishiga turtki berdi. Boshqacha aytganda, jamiyatdagi yangilanish ehtiyoji va istagi odamlar kayfiyatidagi yangilanish ehtiyoji va istagida o‘z aksini topa boshladi. Bunday holatlarda tabiiy ravishda kishilarda shaxslashuvga moyillik kuchayadi, ya’ni fuqarolarda daxldorlik tuyg‘usi ortadi, shaxs – jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarning bosh va markaziy figurasiga aylana boradi.

Bugun biz to‘la asos va ishonch bilan aytishimiz mumkinki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz Vatanimizning Bosh huquqiy hujjati sifatida fuqarolar tiynatida shaxslashuv jarayonini boshlab beruvchi, shaxslashuvdek oliy insoniy martabaga – komillikka undovchi, da’vat etuvchi manba vazifasini o‘tamoqda. Ushbu mulohazadan kelib chiqilsa, Konstitutsiyaning dastlabki satrlarida zikr etilgan “xalq irodasi” iborasi Bosh hujjatimiz tub mohiyatining, ustuvor ma’no-mazmunining, kerak bo‘lsa, markaziy o‘qi-umurtqasining timsoli o‘laroq boboso‘z vazifasini o‘tayotganini, zero, har qanday “xalq irodasi” tushunchasi mohiyatan shaxs va shaxslar irodasidan boshlanishini anglash qiyin emas.

Jamiyatimizda so‘nggi yillarda kuzatilayotgan o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-ma’naviy ko‘tarilish-evrilishlar zanjiri xalqimiz ongi va tafakkurining mustahkam qatlamiga aylana borayotgani quvonarli voqea, albatta. Va faxr bilan baralla tasdiqlamog‘imiz darkorki, amaldagi Konstitutsiya moddalari har jihatdan mazkur zanjirning mustahkamligini oshirishga qaratilganligi bilan ham qadrli va qimmatlidir.

Davlat suvereniteti, chunonchi, mustaqilligi, demokratligi, huquqiyligi, avvalambor xalq manfaatlari uchun xizmat qiladi. Davlatning fuqarolar oldida mas’ulligi, o‘zbek tilining davlat tili maqomiga egaligi, qolaversa, milliy mansubligidan qat’i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosini “Vatandosh” deb atalguvchi yagona oliy martaba ostida jipslashuvga undalayotgani xolis niyatli har bir kishiga cheksiz g‘urur, iftixor bag‘ishlaydi.

O‘zbekiston – nufusi 40 millionga yaqinlashib borayotgan, dunyo jug‘rofiy xaritasida salmoqli o‘ringa ega katta davlat. ***Binobarin, hayot istalgan paytda muhimdan-muhim masalani ko‘ndalang qo‘yishi tabiiy. Bunday holatda ana shu masalaning umumxalq mashvarati – referendumga qo‘yilishi (9-modda) fuqaroga, shaxsga bo‘lgan ehtirom, ishonch ramzi hisoblanadi.***

Demokratiya va demokratiya prinsiplari tildan tushmaydigan mavzu. Bu prinsiplarning mag‘zi shu qadar bemiqyos va shu qadar mazmundorki, ular xususida so‘z aytish har qanday insonning bahri dilini ochadi. ***Axir insonning “hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari” (13-modda) OLIY qadriyat ekanligi belgilab, tasdiqlab qo‘yilmoqda. Bu kabi oliy maqomlarga erishmoqlik, jumladan, insoniy farovonlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’min etishda qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillarini qo‘llash davlat zimmasida qolmoqda (14-modda).***


Mana shunday huquqiy muhit hukm surgan jamiyatda fuqaro davlat bilan qay tartibda munosabat o‘rnatishi katta ahamiyatga ega. ***Mazkur munosabat qay tartibda o‘rnatilishi 20-moddada aniq-ravshan zikr etilgan. Ya’ni, bunday holatlarda “huquq va majburiyat” mezonlari orqali adolatli muvozanatga erishiladi.*** Ushbu moddaning so‘nggi xatboshisi nafaqat mazkur moddaning, balki Konstitutsiyamizning buyuk insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilganini tasdiqlaydi. O‘qiymiz: ***“Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”.***

Bu norma bir tomondan, insonning insonligini ulug‘lovchi, ikkinchi tomondan, oddiy fuqaroni shaxslik maqomiga undovchi da’vatkor chaqiriqdek o‘qiladi.

“Shaxsiy huquq va erkinliklar” deb nomlangan VII bobdan joy olgan 11-modda bevosita biz so‘z yuritayotgan mavzuni atroflicha qamrab olgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, ***Konstitutsiyaning 13-moddasida inson “hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari” haqida so‘z borgan bo‘lsa, 26-modda mazkur huquqlarni yana bir karra alohida ta’kidlamoqda, tasdiqlamoqda, uqdirmoqda. Ya’ni, “Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir”.***

Sha’n va qadr-qimmat mavjlari nihoyatda serjilva, serto‘lqin. Ularni atroflicha va to‘laqonli idrok etish mavzuida jild-jild kitob yozish mumkin. Kundalik turmushimiz so‘qmoqlarida esa bu borada istagancha “haroratli” va “sovuq” misollar uchrashi hech kimga sir emas. Mamlakatimizning Bosh qomusi – Asosiy hujjati esa takror-takror ta’kidlamoqda, o‘zini shaxs deb bilgan har bir fuqaroni hushyorlikka, ogohlikka undamoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, navbatdagi moddada mazkur qadriyat, ***“Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega” deya yanada mustahkamlanmoqda. 31-moddada yana va yana sha’n va qadr-qimmatni himoya qilish huquqi ulug‘lanmoqda.***

Shaxsning fuqarolik huquqlari haqida so‘z borganda har bir ziyoli odam ko‘z o‘ngida 33-moddada bayon etilgan huquqiy me’yorlar misoli oftob taftidek nur taratadi. Zero, yashash huquqidan so‘ng fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi inson hayoti, umri, kasb-kori, faoliyati, taqdiri va qismati, qolaversa, avlodlarining istiqboliga ham bevosita, ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan, iz qoldiradigan kuchga ega. Ongli insonning fikrlashi, hayotini o‘zi istagan e’tiqod asosiga qurgan holda o‘z nuqtayi nazarini emin-erkin ifoda va izhor etish huquqini ta’minlash zamonaviy



**Xurshid DO‘STMUHAMMAD,**
**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi**

bashariyat tamadduni va dunyoning eng ilg‘or yuksakliklari sari dadil odimlayotgan O‘zbekiston uchun g‘oyatda dolzarb va muhim vazifa, missiya bo‘lib qolaveradi.

Biz demokratiya, so‘z va fikr hurligi mavzusidan so‘z ochilsa, G‘arb tajribalariga murojaat qilishga odatlanib qolganmiz. Vaholanki, misol tariqasida, allomayi zamon Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan bundan qariyb 110 yil muqaddam tayyorlangan “Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi”da keladigan, “Har kim o‘z fikrini, xayolini so‘ylamakda, matbuot va boshqalar vositasi ila nashr va e’lon qilmakda ixtiyorlidur” degan so‘zlari so‘z va fikr erkinligi har qanday davr va zamonda ham jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta’min etuvchi qudratli vosita bo‘lib qolaverishidan, qolaversa, ayni shunday orzu-niyatni o‘zimizning jadid bobolarimiz ham istaganidan, talab qilganidan dalolat beradi.

***Inchunin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 33-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan “axborot izlash, olish va tarqatish huquqi” 53-moddadagi “ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi” me’yorida mantiqan davom etgan. Ikki moddadagi qadriyat esa “Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi” degan me’yor darajasiga ko‘tarilgan.***

Har qanday millatning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratini undagi intellektual salohiyatdan kelib chiqib tosh-u tarozi pallasiga qo‘yish allaqachon zamonaviy yuksalish mezonlari darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, navbatdagi Uyg‘onish yuksakliklari orzusida yashayotgan Vatanimizda mavjud barcha imkoniyatlar aql-idrok, tafakkur, zehn-zehniyatni ardoqlashga qaratilayotgani pirovardida shaxsning, shaxs imkoniyatlarining ardoqlanishi ekanligiga alohida urg‘u berging keladi kishi. Zero, har qanday tafakkur ortida inson omili, inson omili ortida esa shaxs omili qad rostlaydi, har ikki omil ortida esa Vatan, xalq, jamiyat manfaati davom etadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni xalqimiz ulug‘ shodiyona sifatida nishonlar ekan, uning tub mohiyatidagi SHAXSni ulug‘lovchi, fuqarolarimizni SHAXS sifatidagi komillikka undovchi da’vatkor ruhi-shukuhini har lahza, hamisha qalbimiz to‘rida saqlamoqqa, asrab-avaylamoqqa burchlidirmiz.

O‘ZBEK TILIM – O‘Z TILIM

# “Shu yurtda tug‘ilganim – mening baxtim!”



**“Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti – til va adabiyotidir”, deb aytgan edi mohir pedagog Abdulla Avloniy. O‘zga millat vakilasi bo‘lgan yurtdoshimiz Irina Zelenova bilan suhbatimiz davomida jadid bobomizning tilimiz haqida aytgan mazkur hikmatli so‘zlari mag‘zini chuqurroq anglaganday bo‘ldim.**

– O‘zbek tili men uchun juda qadrli va aziz. Men rus oilasida voyaga yetdim. Garchi tomirimda o‘zga millat qoni oqsa-da, o‘zbek xalqini nihoyatda hurmat qilaman, – deydi Irina Zelenova. – Ayrim o‘zbek yigit-qizlarining xorijiy tilni o‘rganishga zo‘r berib, o‘z ona tilini puxta o‘zlashtirishni keyingi darajaga qo‘yishayotgani to‘g‘ri emas, deb o‘ylayman. Men bog‘chada ham o‘zbek guruhiga borganman. Mahalladagi o‘rtoqlarimning aksariyati o‘zbek farzandlari edi. O‘zaro o‘zbekcha gaplashardik. Shu tariqa bu tilga mehr qo‘yib, uni astoydil o‘rgandim. Bugun o‘g‘lim ham o‘zbek tilida ravon gapiradi. Oilamizning barcha a’zolari o‘zbekchada yaxshi muloqot qiladi.

“Dunyo bo‘ylab” telekanalida “O‘zbek tilini o‘rganamiz” loyihasini boshlagach, ko‘plab muxlislardan fikr-mulohazalar, yaxshi gaplar eshitdim. Ularning ko‘pchiligi o‘zga millat vakillari – o‘zbek tilini o‘rganishga qat’iy kirishgan xorijliklar edi. O‘ylaymanki, til bilgan inson hech qachon kam bo‘lmaydi. Maqtanishga yo‘ymang-u, o‘zim hozirda to‘rtta tilni mukammal bilaman. Ammo men uchun eng qadrlisi, yuragimga yaqini, bu – o‘zbek tili. O‘rni keldi, aytib ketay, o‘zbek adabiyoti namunalarini sevib mutolaa qilaman. O‘qigan kitoblarim ichida eng yoqqani – Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani. Shu asar asosida ishlangan badiiy filmni ham oilamiz bilan birga sevib tomosha qilamiz. Film yakunida yig‘lab ham olganimiz esimda. Yaqinda xorij sayohatidan qaytdim. Ishonasizmi, safar chog‘ida shu aziz yurtimni, go‘zal shahrim – Toshkentni juda sog‘indim. Baribir hech bir yurt O‘zbekistonga teng kela olmaydi. Shunday ozod va tinch Vatanda tug‘ilganim, bu – mening baxtim.

Darvoqe, aytishni unutibman, ayni vaqtda Renessans Qorako‘l maktabida rus tilidan dars beraman. O‘qituvchilik kasbini juda yaxshi ko‘raman.

**Zarnigor IBROHIMOVA**
**yozib oldi.**

Boshlanishi 1-sahifada.

Tag‘in bilganimizdan qolmasdik. Ehtimol, bir paytlar ikki daryo oralig‘iga o‘zgacha bir hayot baxsh etib turgan Orol dengiziga kelayotgan xatarni ko‘rib, ko‘ngli uyg‘oq birovlar:

– Allohning bergan ne’mati o‘lchovsiz emas, uni ehtiyot qilinglar, – deb aytgandir. Axir, sukunatdan ovoz, jimlikdan so‘z ustun paytlar ham bo‘lgan-ku xalqlar tarixida. Ammo bu ogohlantirish davrlarning shamoli bilan birga qo‘shilib uchib ketganday... Hayqirib-o‘kiradigan, to‘lqinlarida chag‘alaylar raqs tushib yuradigan dengiz o‘zidan qudratliroq qarshilikka uchragan vujudday asta-sekin kichrayib, bora-bora qumliklarga singib ketdi... Dengizni yo‘qotish hazilakam yo‘qotish emas!

Maktabni tugatayotganimda Jayhunbo‘yining bu katta fojiasi haqida ko‘p eshitgan bo‘lsam-da, dunyoni yoshlikning zangor ko‘zlari bilan ko‘rib yashayotgan paytim bo‘lgani uchunmi, “Hah, shu ekan-da”, tarzidagi loqayd bir nigoh bilan qaraganman. Farg‘onaga o‘qishga ketar onlarimda ham tabiat




haqida o‘ylaganlarim bundan ziyod emas edi. Ammo hujjat topshirish uchun ilk bor (tunda kelgandim shaharga) ko‘chaga chiqqanimda vujudimni ismsiz bir hayajon o‘rab olgan. Baland-baland chinorlarning uchlari xuddi osmonga tegib turganga o‘xshardi. Daraxtlar shu qadar yam-yashil ediki, umrimda bunday chiroyli rangni ko‘rmagandim.

O‘qishga kirayotgan odamga eng kerakli narsa – vaqt. “Boshini ko‘tarmay kitob o‘qiydi”, tarzidagi ta’riflar aynan o‘sha davrlarga to‘g‘ri keladi. Ammo men uchun o‘sha payt shoxlari bir-biriga tutash daraxtlarni, ariqlarda shildirab oqayotgan zilol suvni tomosha qilish eng zavqli mashg‘ulot edi. Yuragim o‘z-o‘zidan junbushga kelar, xayolan sal shabadada shovullab kuylayotgan daraxt yaproqlari orasiga kirardim, qarasang oynadek yuzing ko‘radigan tip-tiniq suvning to‘lqinlariga qushday qo‘nib, yana uchardim. Ko‘z oldimga yurtimdagi yakkam-dukkam yaproqlari ko‘saga o‘xshatib qo‘ygan jikkak daraxtlar, loyqa suvli solma, yoplar kelardi...

Men shundagina tabiatning inson hayotida tutgan o‘rnini anglaganman. Daraxtlar, suv odam bolasiga faqat kislorod berish yoki uning ozuqaviy ehtiyojlarini qondirish uchungina emas, hayot go‘zalliklarini his etishi uchun, hayrat degan tuyg‘uni qalbidan kechirishi uchun ham kerak ekan.

To‘rt yillik o‘qish davrida vodiy odamlarining tabiatga munosabatini obdon o‘rgandim. Qalbimni zavqqa to‘ldirgan go‘zalliklarning bir uchi mehnatga taqalishini ko‘rdim. Olisdan kelganim uchun bo‘lsa kerak, dugonalarim har shanba navbati bilan meni uylariga olib ketardi. Farg‘onadagi tutingan ayalarim, tog‘alarim, o‘rtoqlarimning ota-onalari parcha yerning ham qadrini bilishar, agar ekinlardan kaftday yer ortib qolsa, o‘shanga ham ko‘kat va yo o‘sma urug‘ini sepib qo‘yishardi. Men “tok oshi”ni ham ilk bor Farg‘onaga kelib yeganman. “Kovartok osh” deyishsa, u qanaqa taom bo‘ldiykin, deya og‘zim ochilgan. Guldan, tarvuz po‘chog‘idan murabbo...

Yer bilan, bog‘lar bilan oshnolik, mehnatdan qochmaslik insonni tabiatning bir bo‘lagiga aylantirar ekan. Bu olamning barcha in’omlarini xuddi o‘z jigarini yaxshi ko‘rgandek yaxshi ko‘rib qolarkansan odam.

Balki, vodiyliklardagi lutf, ko‘ngil qadar halimlik ona tabiatga oshnolik bilan bog‘liqdir. Men “ayalarim”ning farzandlarini og‘zidan tufuk sachratib urishgani, baqirganlarini, rosti, ko‘rmaganman. Agar nojo‘yaroq ish qilishsa, lablarini qimtib, boshlarini chayqab qo‘yishardi, xolos. Hushlarini yig‘ib olish uchun shuning o‘zi yetarli bo‘lardi. Eshik yo darvozadan xonadondagi erkak ismini chaqirib kelishlar (xotin-xalaj o‘zini o‘nglab oladi-da shunda)... Kelguvchini tanishmi, notanishmi:

– Keling, xush kelibsiz, – deya lutf bilan qarshi olishlar...

Umuman olganda, zariflik, nazokatning turfa ko‘rinishlarini ham tabiatdagi xushsuvratlik bilan bog‘lagim keladi. Axir, odam bolasi to‘rt tarafidan yaxshilik bilan qurshalgan bo‘lsa, o‘ziga ham, fe’liga ham yuqadi-da. Gullar jilmayib turgan, tiniq va toza suvlar o‘z tilida kuylayotgan joylarda odam yomonlik haqida o‘ylashi mumkinmi? Albatta, yo‘q.

O‘rtoqlarimizdan biri shohimardonlik edi. Yozgi sessiya kunlari o‘sha yoqqa dars tayyorlagani ketardik. Kitoblarimizni ko‘tarib o‘rikzorga chiqqanimizda mayda chechaklardan baxmalday tovlanib yotgan tog‘lar, o‘tlari belga urib qolgan adirlar ko‘zimga mo‘jizadek ko‘rinar:

– Qanday qilib shunday go‘zallik ichida kitob o‘qigilaring keladi? To‘yib-to‘yib qarab, ko‘zlaringni to‘ldirib olmaysizlarmi, keyin dunyoga shu ko‘zlar bilan boqmaysizlarmi, barcha tashvishlar shu go‘zallik haroratida erib ketmaydimi? – derdim va o‘zim cho‘qqilarga qarab:

– H-o-o-y, tog‘lar! – deya baqirardim. Aks sado qaytgan sari ko‘nglimda shavq qo‘zg‘alib yugurardim. O‘rtoqlarim:

– Voy, ana u telbani... Umringda tosh ko‘rmaganmisan, nima balo? – deb kulishardi.

Shunday sururli lahzalarda men toshlar ham, tog‘lar ham insoniyatga berilgan bir tuhfa ekanini anglaganman. Odamlar nega sayohat bahona tog‘-u toshlarga, tabiatning xushhavo go‘shalariga intiladi? Faqat ko‘rish uchunmi? Yo‘q, kengliklarda yuragini kengaytirib kelish uchun. Faqat men emas, dunyoning juda ko‘p joylarini ko‘rgan, taqdir taqozosi bilan (ota-onalari quloq sifatida surgun qilingan) bir muddat Ukrainada – Qora dengiz bo‘ylarida istiqomat qilgan onam ham tabiatning chin oshig‘i edi. Onam mendan xabar olgani Farg‘onaga kelganlarida Xadichaxon ismli o‘rtog‘imnikiga olib bordim. Ularning uyiga qabriston oralab o‘tilardi. Onam:

– Qabriston ham shu qadar ko‘kalam bo‘ladimi? Keling, qizim, o‘rindiqlarda o‘tirib birpas dam olaylik, – degandilar.

Darhaqiqat, qabristonda atirgullar ochilib yotar, havo xush, muattar edi. Qaytayotganlarida onam bir necha bog‘lam atirgul ko‘chati va o‘sma urug‘ini uyga olib ketgan. O‘sha yili ilk bor hovlimizda atirgullar gullagan, tomorqamizda o‘sma qulf urgan. Bir paytlar bolalarga qanday “Alifbe” (onam boshlang‘ich sinflarga dars berardi) o‘rgatgan bo‘lsa, qiz-kelinchaklarga xuddi shu tarz atirgul o‘stirib, o‘sma qo‘yishni o‘rgatganlar.

Buyuk rassomlar chizgan suratlarni kuzatgansiz, albatta. Eng mashhur asarlarda, shubhasiz, tabiat tasviri bo‘ladi. Shoirlarning she’rlarida-chi? “Ming yillarki, Sharq gul va bulbulga bog‘lanib yashaydi”, degan gap borku. Hassos shoir Hamid Olimjonning birgina “O‘zbekiston” she’rini yodga olaylik:

*...Qirlardagi qip-qizil lola,*
*Bo‘lib go‘yo yoqut piyola.*
*Buloqlardan uzatadi suv,*
*El ko‘zidan qochadi uyqu...*

Yoki Oybek hazratlarining mashhur “Na’matak “ she’ri:

*...Yuksakda, shamolning belanchagida,*
*Nafis chayqaladi bir tup na’matak...*Tabiat odamzodga yashash uchun, tirikchilik uchun ozuqagina emas, ularning iste’dodini kashf qiluvchi, qalblaridagi qo‘riqlarni ochuvchi qudrat ekanligini ham his etamiz. Nima uchun kambag‘allikni qisqartirish, aholini ish bilan ta’minlash, yoshlarga sifatli bilim berishdek zarurdan zarur masalalar turganida, Prezidentimiz “Yashil makon” loyihasi uchun ham vaqt, ham mablag‘ ajratyapti, odamlarni shu yaxshilik atrofida birlashtiryapti, degan savolga ko‘pchilik:

– Atrof-muhitni tozartirish, ekologiyani yaxshilash uchun, – deb javob beradi. Bu javobda ham xato yo‘q. Lekin yana bir haqiqat borki, adolatli siyosatda har bir qadam, avvalo, insonning o‘zini poklash, qalbini tozartirish, ko‘nglini poklikka to‘ldirish uchun tashlanadi. Aslida, “Yashil makon”, “Bir daraxt kessang, o‘nni ek!” kabi harakatlar-u shiorlarning ham asosida ana shu ulkan maqsad turibdi.

O‘zbek har xilqatga ona degan sifatni beravermaydi. Ona tuproq, ona Vatan, ona tabiat kabi muhabbatining, e’tiqodining bir qismi bo‘lgan yaralmishlargagina bu sifatni qo‘shadi. Biz ham eng jarangdor tovushlarni birlashtirib, bor ovoz bilan “Onajonim – tabiat”, deya yuzlanar ekanmiz, mehr-u hayratlarimiz, boringki, yuragimizdagi eng nurli tuyg‘ular ming bir rishtalarda shu aziz nomga, bizning mehrimiz bilan onaligi tobora qadr topadigan, sevgimiz bilan seviladigan tabarruk ismga bog‘lanadi, bog‘lanaveradi.

**Qutlibeka RAHIMBOYEVA,**
**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi**

# IJODNING QO‘SH QANOTI

Boshlanishi 1-sahifada.

Men ham yuzimni sherigim tomon burib “Musiqashunos, olim, yozuvchi. Yozganlarini o‘qisangiz, zo‘r fikrlari, achchiq-achchiq, jizillatadigan tanbehlari qulog‘ingizga kuy-qo‘shiqday eshitiladi, mazza qilasiz”, dedim. “Donishmandligi bor ekan”, dedi hamrohim mamnun ohangda.

Bu e’tirof matbuotda e’tibordan chetda qolayotgan ko‘plab muammolarni dadil ko‘tarib chiqadigan cho‘rtkesar olim Zuhriddin Isomiddinovning “Donishmandlardan biri...” sarlavhali tanqidiy-kesatiq maqolasini yodimga soldi. Zuhriddin unda ko‘pchilik bir nima yozsa, teleko‘rsatuvda qatnashsa, minbarga ko‘tarilsa, biror fikrining isboti sifatida “Donishmandlardan biri shunday degan ekan...” deyishini, o‘quvchi, tinglovchi bu gapni qaysi donishmand qachon, qayerda, nima maqsadda aytganini bilolmay, boshi qotishini xo‘b o‘xshatib kinoya qilgan edi.

O‘tmish allomalar, dunyoga mashhur donishmandlarni yodga olish, ularga suyanish, dono fikrlaridan iqtiboslar keltirish zarur, albatta. Ammo bugun xalqimiz orasidan ilm-ma’rifatda, tafakkurda o‘tmish allomalarga munosib izdosh desak to‘la ma’noda arziydigan, bir necha tilda, bir necha sohalarda barobar ijod qila oladigan yangi munavvarlar yetishib chiqayotgan ekan, istiqlol zamonining bu yangi donishmandlariga ham e’tibor berishimiz, zarur emasmi?! Ijodkor ustozlar Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Tursunoy Sodiqova, Shavkat Rahmon, Erkin A’zamov, Xurshid Do‘stmuhammad, muhtaram olimlarimiz Aziz Qayumov, Suyima G‘aniyeva, G‘aybulla as-Salom, Botirxon Akramov, Najmiddin Komilov, Ibrohim G‘afurov, Ne’matilla Ibrohimov, Ubaydulla Uvatov, Abdulla A’zamov, Abduraim Erkayevni buyuk bobolarning munosib izdoshlari ro‘yxatiga kiritsak va bu ro‘yxatni bugun ona tilida ham, xorijiy tillarda ham biyron so‘zlayotgan, noyob ilmiy salohiyatini namoyon etib, dunyo nigohini O‘zbekistonga burayotgan yoshlar bilan to‘ldirib borsak, xato emas, g‘oyat to‘g‘ri ish bo‘ladi. Vaqt o‘tganidan keyingi hamd-u sanodan naf yo‘q.

Abdulla akani men yoshlar gazetasida ishlab yurgan kezlarim taniganman. O‘sha yillari gazetada “MSM – matematiklarning sirtqi maktabi” rukni bo‘lib, u sohaga qiziqqan yoshlar uchun ayni muddao bo‘lgan. Abdulla akaning suhbatlaridan matematika u kishining qon-qoniga singib ketganini sezish qiyin emas edi. Mashg‘ulotlar chog‘i “Matematika mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi”, derdi yosh ustoz.

Yillar o‘tib, Abdulla aka taniqli matematik olim sifatida shakllandi. Hozirgi Milliy universitetda differensial tenglamalar bilan shug‘ullandi. Birinchi o‘zbek ensiklopediyasi nashriga salmoqli hissa qo‘shdi. Hijriy va milodiy taqvimlarda sanalarni kunma-kun o‘girish jadvalini ishlab chiqdi. Nomzodlik ishini Toshkentda, doktorlik ishini Sankt-Peterburgda himoya qildi. Iqtidorli yoshlarga mantiqiy matematika xususiyatlarini o‘rgatdi. Keyin... Namangan safariga ketdi. Universitetga rektor bo‘ldi. O‘qishga qabul qilish va o‘quv jarayonini tashkil etishga doir xolis, adolatli tizimni yo‘lga qo‘ydi. Bu tizim ko‘p o‘tmay o‘zining ijobiy samarasini berdi. Ammo... o‘sha yillari oliy ta’limni chirmovuqdek o‘rab olgan tanish-bilishchilik “an’ana”si yangi rektorning bu shijoati yo‘lini, garchi u kutilgan samarani berayotgan bo‘lsa ham, to‘sdi. Toshkentga qaytishga to‘g‘ri keldi. “Tafakkur” jurnalida ish boshladi.

Keyinchalik Abdulla aka bilan Prezident Devonida bir muddat birga ishladik. Abdulla aka iqtidorli yoshlarga mo‘ljallangan Oliy adabiyot kursini tashkil etish uchun ko‘p mehnat qildi. Rasmiy matnlarni tayyorlashda jumlalar jilvasiga emas, fikr salmog‘i va mantiqiy mushohadaga e’tibor berdi. Bu orada “Alisher Navoiy g‘azallarida hazil-mutoyiba” degan risola yozib, do‘st-qadrdonlariga sovg‘a qildi. Turkiy davlatlar matematiklari jamiyatining vitse-prezidentligiga saylandi. Murakkab tenglama-yu teoremalar ustida ishlab charchamagan holda, hazrat Alisher Navoiy ijodining bugungacha tadqiq etilmagan jihati ustida ilmiy izlanish olib borayotgani ko‘plar uchun kutilmagan hol edi.

Abdulla A’zam Navoiyning falsafiy ta’limotini o‘rganar ekan, bu ilm nima uchun dunyoga yoyilmay qolgani sababini mutafakkir bobomizning vatanparvarligi bilan bog‘lab, taniqli olim B.Hasanovning quyidagi fikrini keltiradi: “Navoiy fors va arab tillarini mukammal bilgan. O‘sha davrda ko‘plab buyuk forsiynavislarning ijodiy merosi tufayli fors tili ulkan hududning adabiy tiliga aylangan. Bundan avval arab tili ilm-u fan, ayniqsa Qur’on va hadis ilmining tili sifatida maktab va madrasalarda chuqur o‘rganilgan, Navoiy davrida ham bu tendensiya davom etgan, albatta. Hazrat Hirotda maktabda va Mashhadda madrasada egallagan arab tili bo‘yicha bilimini Samarqandda, bu tilning Abullays Samarqandiydek bilimdoni qo‘l ostida haddi a’losiga yetkazgan. Bu shundan ham ko‘rinadiki, Navoiy qalamiga mansub “Sab’at-u abhur” nomli qo‘lyozma mavjud bo‘lib, u yuz mingdan ziyod (!) arabcha so‘z va iboralar lug‘atidan iborat”.

Abdulla A’zamov bu fikrni mantiqan davom ettiradi: “Navoiy arab tilida ham bemalol ijod qilishi mumkin edi va bunda uning shuhrati nafaqat Sharqqa, G‘arbga ham tez yoyilardi... Navoiy fors tilida ijod qilganida ham XVIII asrdan Yevropada shuhrat qozonishi mumkin edi – (chunki) shu davrdan fors adabiyoti vakillarining she’rlaridan namunalar nemis tiliga tarjima qilina boshlangan. Nizomiydan to Jomiygacha. Ularni o‘qigan Gyote qattiq mutaassir bo‘lgan, havas bilan “G‘arb-u Sharq devoni” degan she’rlar turkumi yaratgan. Afsuski, Navoiy nemis tiliga tarjima qilingan mualliflar safidan tushib qolgan. Sababi – u shoh asarlarini o‘zining ona tilida yozgan”.

Matematik A.A’zamovning ilmiy izlanishlari boshqa sohalarda ham ko‘zga tashlanadi. Uning qalamiga mansub tahliliy maqolalarning har birida o‘quvchi (olim, mutaxassis, talaba, qiziquvchi) o‘zi uchun muhim bir yangilik, zarur talqin yoki kutilmagan xulosa-topilmaga duch keladi.

“Odatda, aksariyat akademiklarning ilmiy faoliyatida bitta yo‘nalish ustuvor bo‘lishini bilamiz, – deb yozadi taniqli adib Xayriddin Sultonov. – Abdulla A’zam misolida esa matematik iqtidor va navoiyshunoslik salohiyati teng darajada quvvatga ega ekani, ya’ni, u kishi fizika-matematika bo‘yicha fan doktori, akademik bo‘lish barobarida navoiyshunoslik sohasida ham hech bir olimdan ustun bo‘lsa – ustunki, kam emasligini jamoatchiligimiz e’tirof etib keladi. Abdulla aka faktlarga, ma’lumotlarga ijobiy ma’noda o‘ta injiqligini, uncha-muncha haqiqatlarni to o‘zi tadqiq qilib ko‘rmaguncha qabul qilmasligini ko‘p bor kuzatganman. Shu o‘rinda domlaning “Bobur ensiklopediyasi”dek fundamental ilmiy tadqiqotni nashrga tayyorlash va chop etish jarayonida bosh muharrir sifatida fidoyilik va mas’uliyat bilan xizmat qilganini alohida eslab o‘tishni istardim. Muallifning ilmga, har bir tadqiqot ishiga, so‘z san’atiga nihoyatda jiddiy mas’uliyat va talabchanlik bilan yondashishini, bu yo‘lda “igna bilan quduq qazib, suv chiqarish”dek zahmatli yumushdan hech qachon qochmasligini, aksincha, shunday mashaqqatli mehnatdan ma’naviy qanoat hosil qilishini yaxshi bilganim sababli ham, u kishining “Abrorlar hayrati” deb nomlangan yangi asariga qiziqishim yanada ziyoda bo‘ldi”.

Abdulla akaning ko‘pqirrali ijodkorligiga “Tafakkur” jurnalida e’lon qilingan (1999, 1-son) “Fan va din: munosabat dialektikasi” maqolasi g‘oyat kuchli dalil bo‘la oladi: “Fan va din har doim o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lib kelgan. Har ikki jabha ong va tafakkur ko‘priklari bilan tutashgan. Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Aflotun, Arastu uchun fan va din deyarli ayni bir soha – falsafadan iborat bo‘lib, u “Fizika” va “Metafizika” qismlariga bo‘lingan. Keyinroq matematika, astronomiya va tibbiyot rivojlana boshlaganda ham fan va din o‘zaro uyg‘unligini saqlagan. Alisher Navoiy hayotida esa din, fan, adabiyot va siyosat yaxlit tizim hosil qilgan”.

Muallif o‘quvchini asta-sekin dunyoda mavjud, ammo ko‘plar tan olmayotgan bir haqiqatning o‘zgarmas o‘zaniga tortadi: “Islom Sharqida “ilm” tushunchasi ham diniy, ham dunyoviy mazmun kasb etgan. Ayni paytda ilmning bu ikki pallasi o‘ziga xos jihatlarga egaligi inkor etilmagan. XI asrdan (ya’ni tasavvuf ta’limoti ilm sifatida shakllanganidan) boshlab “ilmi qol” va “ilmi hol” tushunchalari muomalaga kiritiladi. Dastlab bu ikki tushuncha so‘fiyning zohiriy va botiniy dunyosiga oid, murshiddan muridga berilishi mumkin bo‘lgan yoki bo‘lmagan bilimga nisbatan istifoda qilingan. “Ilmi qol” so‘z bilan ifodalash, o‘rgatish yo‘li orqali berilishi mumkin bo‘lgan bilimni anglatsa, “ilmi hol” har bir so‘fiyning o‘z tafakkuri va e’tiqodiga xos, qalb ko‘zi bilan yetishgan, o‘zgalarga o‘rgatish imkoni bo‘lmagan bilimni bildirgan. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, Abu Rayhon Beruniy “qol ilmi”, Bahouddin Naqshband esa “hol ilmi”ning yetuk vakili edi. Biri avlodlar uchun nodir asarlar yozib qoldirgan bo‘lsa, ikkinchisi yuzlab izdoshlariga ruhiyat sabog‘ini bergan”.

Maqolaning yakuniy xulosasi: “Sho‘ro mafkurasi diniy tarbiyani yo‘qqa chiqarishga harakat qilsa-da, uning o‘rnini to‘ldira olmadi. Albatta, dahriylar ichida ham yuksak axloq egalari bo‘lgan. Lekin bunday axloqni o‘zida tarbiyalashni mingdan bir odam uddalasa, Xudodan qo‘rqmagan 999 nafari esa hech narsadan toymasligi mumkin. Chunki yuksak axloqda sobit qolish, shaytoniy hirsga hay berish uchun kishiga ma’naviy tayanch darkor. Din ana shunday tayanchlarning eng ommabopi, tarix chig‘irig‘idan o‘tgani, demak, eng muhimidir. Axloqiy tarbiya – dinning birinchi galdagi vazifasi”.

“Ziddiyat va bog‘liqlik” deb nomlangan maqolada Abdulla A’zam boshqa bir yo‘nalishda o‘zini ko‘rsatadi: “So‘z – o‘ta tilsimli hodisa. U juda jo‘n bo‘lishi ham, nihoyatda murakkab, qatma-qat ma’noli bo‘lishi ham mumkin. Adabiyot so‘z san’ati sifatida nutqning bu xususiyatidan unumli foydalanadi, mo‘jizalar yaratadi. Ayniqsa, Navoiy she’riyati. Uning ijodiy merosida muhim o‘rin tutuvchi so‘zlardan biri – “navo”. Bu so‘zning mumtoz adabiyotda navobaxsh, navogoh, navozanda, navosoz, navosiz, benavo kabi o‘ndan ziyod hosilalari muntazam qo‘llanilgan. “Navo” so‘zining o‘zi – ko‘p ma’noli. Ulardan biri Markaziy Osiyo arxitekturasida arka ma’nosiga ega, yana biri uy jihozlarini bildiradi. Bugungi o‘zbek tilida bu so‘z kuy, qo‘shiq ma’nosini anglatadi, xolos. Bu – taassufga loyiq hol. Zotan, kuy, qo‘shiq “navo” so‘zining eng tub ma’nosi ham, muhim ma’nosi ham emas. Navoiyning “Masnaviy” asaridagi mana bu baytni olaylik:



***Ne bir ahli davlatdin oncha umid,***
***Ki, andin navo topsa bir noumid.***

Baytda Abulqosim vafotidan so‘ng Xurosonda yuzaga kelgan ahvol tilga olingan. “Navo” deganda nima ko‘zda tutilgan? Ravshanki, aslo musiqa emas. Lug‘atlarga murojaat etaylik. Besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “navo” so‘zining beshta ma’nosi berilgan: birinchi o‘rinda kuy, ohang, qo‘shiq, so‘ng: zavq, maqom nomi, nola va me’morchilikda qo‘llanadigan bezak. Ko‘rinib turibdiki, bu ma’nolarning birortasi ham Navoiy bayti mazmuniga muvofiq emas. Eronning “Dehxudo” nashriyot uyi tomonidan nashr etilgan mashhur “Fors tili lug‘atnoma”sida “navo” so‘zining birinchi ma’nosi sifatida “tirikchilik, kun ko‘rish vositasi” (“vasoyili zindagi”) ma’nosi berilgan. Hech shubhasiz, yuqoridagi baytda xuddi shu ma’no o‘rinli: hayotdan noumid bo‘lgan odam uchun bir burda non tutadigan ahli davlat (boy-badavlat) topilishidan umid qolmadi”.

Abdulla A’zamov ushbu maqolaning yuqorida keltirilgan besh-olti jumlasini qog‘ozga tushirish uchun qancha vaqt sarfladi, qancha lug‘atlarni varaqlab chiqdi, qancha ma’nodosh so‘zlarni bir-biriga qiyoslab chiqdi ekan? Tasavvur qilasizmi?

Abdulla aka hamma qatori bir kecha-kunduz atigi 24 soat davom etadigan vaqt olamida yashaydi. Ammo ko‘p narsaga ulguradi. Yosh navoiyshunoslarning tadqiqotlariga, aruzda ijod qilayotgan katta-kichik shoirlarga, boshqalarga ham, dalda maktublar yozadi, qo‘llab-quvvatlaydi.

Abdulla akaning publitsistik maqolalarida chuqur ijtimoiy tahlil, mantiqiy mushohada va ulardan anglashiladigan zarur xulosalar, rad etish qiyin bo‘lgan aniq takliflar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ilmiy ijodkorlikka xos xususiyat bu.

**Ahmadjon MELIBOYEV**

# NAVOIYLIK NOVVOY OPA



Boshlanishi 1-sahifada.

Novvoyning o‘zi esa bugun xamir qorib, non yopishdan bo‘shagan, katta-katta tashkilot rahbarlari-yu hokimlar bilan bir qatorda kambag‘allikni qisqartirish masalalari bilan band. Viloyat hokimi Normat Tursunovning chorlovi bilan tashkilot rahbarlari yig‘iniga borgan Shahnoza Navbahor tumanidagi ishsiz ayollar ro‘yxatini ko‘riboq, o‘z taklifini bildirdi: “Bu ayollarni menga bering!”

Ish topmay, yordam so‘rab mahallama-mahalla yurgan ayollar ko‘ziga dastlab ish og‘ir ko‘rindi. “Bu ishni eplolmaymiz” deb ortga tisarilishdi. Shahnoza ularni jon joyidan ushladi: “Kuniga yuz ming so‘mdan beraman. Eplasangiz ham, eplolmasangiz ham”. Bu kishi bilmas “tuzoq” edi va ayollar unga bir deganda ilindi. Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir, deb hammalari ishlab ko‘radigan bo‘ldi.

– O‘sha kuni ayollarni uy-uyiga eltib qo‘ydik, – deydi Shahnoza Karimova. – Lekin masalani tubli hal qilish kerak edi. Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i Malika Tojiyevna bilan bu ayollar uchun korxona filialini ochish kerak, degan fikrga keldik. Navbahor tumanidan ma’qul joy qidirdik. Hali bu opa-singillarimiz biz aytgan ishga ko‘nadimi o‘zi, degan savol ham bor edi. Ishlamayman, deb ketvorishsa, sarflagan pulimga kuyarman, deb o‘yladim. Axir, qo‘llarida yo‘lkirasi ham yo‘q ayollar bor edi.

Hokimiyat bitmay qolib ketgan eski binoni, bir yillik ijara pulidan kechib, menga topshirdi. Tavakkaliga ta’mirladim. Bosh hisobchim “Dod, nima qilyapsiz”, deydi. Hech ish boshlashga ko‘ndirib bo‘lmaydi. Pul bermaydi, meni o‘ylaydi. Yo‘lini qildim, qarzga kafel oldim, usta tushirdim. Nasiyaga kelishib konditer pechlar sotib oldim, eski xarobaga keltirib tushirdim...

Bino bitdi, ayollarni yana olib keldik. Bundan avval o‘zimning ishchilarimni yig‘dim. Ularga “agar shu yerga kelgan biror ayol yo‘q, ishlolmayman, deb ketsa, oyliklaringizdan kesaman. Har qaysingiz shogird tushgan ayolga javobgarsiz”, dedim. Boshqa chora yo‘q edi. Shunday shart qo‘ymasam, ishini o‘rgatishga vaqtini qizg‘anadiganlar bor. O‘rganishga kelgan shogirdni bir cho‘qishda ishdan bezdiradi. Ishonasizmi, biror ayol ketmadi.

Hammalarini avayladim, shirin muomala qildim. Lekin men korxonamni ham o‘ylashim kerak. Ishni to‘liq o‘rganib, qo‘li pul ko‘rgach, oyligini kunlik ellik mingga tushirdim. Chunki har ishchi o‘ttiz kilo mahsulot chiqaradi. Shu mahsulotining tushumidan oylik chiqadi. O‘tirib hisoblanglar, dedim. Maoshni yana yuz mingga chiqarishim uchun mahsulotni ko‘paytirishingiz kerak, dedim...

Yaxshi maosh ta’mini totgan bu ayollarning ishga muhabbatini ko‘ring! Boshida kelish-ketishiga pul berganimda, tashlab qochib ketardi hammasi. Hiyla qildim va bu hiylam ish berdi. Ular juda zo‘r mahsulot chiqara boshladi. Aytganimdan ham a’lo. Xuddi onasidan nonpaz bo‘lib tug‘ilganday. Hozir ularga pul bermasam ham, ishlaydi. Chunki mehr qo‘ydi. Menga esa ana shu – ishga mehr kerak edi.

Ayollar Shahnozaning, Shahnoza esa viloyat hokimining ishonchini oqladi. Arzimagan bir martalik pulga sarg‘ayib yurgan ayollarni uch million oylikka yetkazgani uchun hokimiyat Shahnozadan minnatdor. Unga tadbirkorlikning boshqa turlari uchun ham yer ajratishga qaror qilindi. Tag joyining o‘zi bir milliard oltmish million so‘mga baholangan joy nol qiymatda beriladigan bo‘ldi. Shahnoza bu joyda faqat ayollar ishlaydigan korxona qurishni reja qilgan. Go‘zallik saloni, psixolog xizmati, kafeteriya, tikuvchilik, dizaynerlik, kosmetologiya va pishiriqlar, bolalar massajiga o‘rgatuvchi kurslar tashkil qilinadi. Farzandlari bilan keladigan xotin-qizlarga qulaylik yaratish maqsadida soatbay bog‘cha faoliyati ham yo‘lga qo‘yiladi.

...Shahnozani otasi juda erta turmushga berdi. G‘ijduvonlik kuyov novvoy ekan, yosh kelin-kuyov har kuni yarim qop undan xamir qorib, non pishirdi. Lekin pulning barakasi bo‘lmadi. Topgani ijaraga ketib qolardi. Shahnoza tikuvchilik qilib ko‘rdi, qo‘ni-qo‘shnidan meva-sabzavotni arzon olib, shahar oralab sotdi. Baribir, topgan puli ro‘zg‘orga urvoq ham bo‘lmadi. Navoiy shahridagi “Farhod” ashula va raqs guruhiga sahnabop kiyimlar tikdi. Yaxshi dizayner bo‘lib tanila boshlaganida, surunkali yurak porogi aniqlangach, tikuvchilikni to‘xtatishga majbur bo‘ldi.

Shundan so‘ng tashvishlari yana ortdi. Endi turmush o‘rtog‘iga to‘liq ko‘maklashadigan bo‘ldi. Ikkisi ikki do‘konni ijaraga olib, non chiqara boshlashdi. Doimiy mijozlar topilgach, ishlar yurishib ketdi. Shahnoza non yoniga patir qo‘shdi. Bozorda uning arava-arava nonini odamlar navbatda turib kutadigan bo‘lishdi. Er-xotin biri qo‘yib, biri xamir qoraverdi. San qil, man qil, demadi. Bir yoqadan bosh chiqardi.

O‘sha paytlar turmush o‘rtog‘i g‘ijduvonlik bo‘lgani uchun ro‘yxatga qo‘yilmagan – mamlakatda “propiska” degan juda og‘ir muammo bor edi. Bir viloyat fuqarosi boshqa viloyatga ro‘yxatga olinmasdi. “Propiska”si yo‘qlar esa mashinaga bosib olib ketilardi. Erini bunday tashvishdan uzoq tutib, Shahnoza ko‘proq o‘zi yugurdi. Ko‘p qavatli uylarda oyna yuvuvchilik qildi, kishilar xizmatida bo‘ldi, birovning kirini yuvdi, birovning uyini tozaladi.

Bu orada uning ikkinchi farzandi Kumushxonga shifokorlar, uzil-kesil, yurolmaydi deb tashxis qo‘ydi. O‘zi ijarada yashab yurgan holiga bola ham yurolmaydi, bor tana bilan sudraladi, xolos. Qo‘l-oyoqlar ishlamaydi, belini tutolmaydi. O‘z uyi yo‘q, hech qayerda ro‘yxatda turmagandan keyin shifokorga muntazam ko‘rsatishning ham iloji yo‘q. “Non yopib yuraverganman, yurib ketadi, deb o‘ylaganman”, deydi Shahnozaning o‘zi bu haqda.

Qizaloqning kasalligi o‘tib ketib, qiynaladi. Shahnoza yillar davomida har juma bir tog‘ora pishiriq pishirib, ehson sifatida tarqatadi. Odamlardan duo so‘raydi. Ijaraga olgan do‘kon atrofiga daraxt ekadi, tuni bilan chelakda suv ko‘tarib sug‘oradi. Uyqu deganini bilmaydi. “Bir xosiyati bo‘lsin, mening bolam tuzalsin”, deydi.

Bolaning oyog‘iga temir qo‘yishadi. Bir tabibga davo istab boradilar. Tabib unga beshik sig‘ar joy beradi. Shahnoza beshikka suyanib mizg‘ib-mizg‘ib o‘tkazadi kunlarini, tabibnikida uch oy shu tariqa yashaydi. Orada turmush o‘rtog‘i non tayyor bo‘ldi, sotish kerak deb borsa, bolani tabibning qo‘lida qoldirib, savdoga yuguradi. Axir, boshqa pul keladigan joy yo‘q, imkon yo‘q.

Bola yuradi, ammo gapirolmaydi. Yana shifokor... Yana yugur-yugur... Yana chiqim... Kumushning kasalligi boshi bilan bog‘liq edi. Shahnoza qachondir mo‘jiza yuz berishidan umid uzmaydi. Bolasi tuzalishiga inonadi. Yiqqan-tergan puliga bolasini Zominga olib boradi. Tog‘ga olib chiqib, kitob orqali davolaydi. Har xil badiiy asarlarni ovoz chiqarib o‘qib beradi, o‘qitadi, tilidagi muammolari bilan ishlaydi. Yigirma to‘rt kun deganda bor-yo‘g‘i bir bandgina she’r yodlata oladi, xolos. Ammo shu to‘rt qator she’r ham u uchun natija edi. Hozir uning Kumushxoni Buxorodagi mashhur qorako‘l maktabida eng yuqori ko‘rsatkichlar bilan o‘qiyapti. Yigirma masaladan yigirmatasini bemalol yechadi.

Ehtimol, bu qiyinchiliklar hali tugamas edi. Shahnoza kabi mehnatkash, ishbilarmonlar zamoni keldi. Mamlakatda yangi davr boshlandi. Tadbirkorlik soha sifatida tan olindi, uni rivojlantirish uchun hamma shart-sharoit yaratildi. Qo‘li olti, oyog‘i yetti bo‘lib yugurib yurgan Shahnozani ham “Tadbirkorlikni rivojlantirsam-chi”, degan o‘y tark etmay qoldi. 2016-yilda davlatdan 25 million so‘m kredit ko‘tarib, do‘konini kengaytirdi. Bu pul uning niyatlari oldida hech narsa bo‘lmasligini anglab, kredit summasini 300 millionga yetkazdi.

Ayni paytda korxona uchun kuniga o‘n tonnadan ziyod un, yuz kilogrammga yaqin qaymoq sotib oladi. 300 dan ziyod turdagi non va non mahsulotlari ishlab chiqaradi. Nondan tashqari somsa, bichak, manti, chuchvara, xonim kabi tayyor taomlarni ham elga tortiq qilmoqda.

Shahnoza pulga ruju qo‘ygan ayol emas. U inson qadrini yuksak ko‘radi. Shuning uchun har bir ishchisining dardi bilan yashaydi. Uyida muammosi bor xodimini darrov nazoratiga oladi. Qarzi borning qarzlarini to‘lashadi. Shuning uchun ham ishchilarining hammasi ko‘rgan ko‘zga opa-singil, qon-qarindosh bo‘lib ko‘rinadi. “Baraka non”ning har bir xodimi korxonani o‘zining uyiday yaxshi ko‘radi. Shahnoza shu ikki yuz ishchisining bepul tushligini ham tashkil qilib qo‘ygan. Bundan tashqari, haftada bir kun u 15-20 kilogramm guruchdan osh pishirtirib, xodimlari ko‘nglini oladi. Bir taom boshiga kelganlarning rishtasi mustahkam bo‘ladi, deydi u.

“Baraka non” mahsulotlariga aholi ichida talab kuchli. Chunki sifatli. Buning ustiga cho‘ntakbop, xalq labini yalab o‘tib ketadigan narxlarda ham emas. Asosiysi, ishchi-xodimlar rahbaridan minnatdor, mehnatining rohatini ko‘rmoqda.

Shahnoza esa hamon yugurgan-yelgan. Yangi reja, loyihalar qilmoqda. Yillar unga ko‘p saboq, undan ham ko‘p farog‘at berdi. U tadbirkorlik olamiga bir tandirgina non bilan keldi va bu olamda u o‘g‘ri bilan ham, to‘g‘ri bilan ham ishladi. Lekin hammaning ko‘nglini topdi. Hech kimni qavatidan qo‘ymadi, noumid qilmadi.

“Odam ham non kabi aziz. Bir nonni uvolidan, bir odamni malolidan qo‘rqish kerak”, deydi u. Balki uning kamoli ham shundadir. Zero, Shahnoza kabilar “olam uyidin” “kamol kasb etib” chiqayotgan benazir insonlardir.

**Muhayyo PIRNAFASOVA**

Boshlanishi 1-sahifada.

# HAMMA O‘QIYAPTI.

## DAVLAT RAHBARI – BOSH TARG‘IBOTCHI

Avvalo, Yangi O‘zbekistonda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va adabiyot, jumladan, kitob va kitobxonlik masalalariga yuksak e’tibor qaratilayotganini alohida ta’kidlab o‘tishimiz zarur.

Jamiyatimizda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilib, bu masala bo‘yicha qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining bir necha qarorlari, xususan, mamlakatimiz rahbarining 2017-yil 12-yanvardagi **“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha Komissiya tuzish to‘g‘risida”**gi Farmoyishi yurtdoshlarimiz tomonidan ko‘tarinki kayfiyatda kutib olingani hammamizning yodimizda. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu muhim hujjatlarning ijrosini ta’minlash yuzasidan boshlangan katta ishlar, milliy dasturlar izchil davom ettirilmoqda. Yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish va targ‘ib qilish vazifasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangani ham ushbu masalaga qanchalik jiddiy e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz rahbari shoir-yozuvchilar, noshirlar, olimlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladi, hududlarga tashriflari davomida imkon qadar joylardagi kutubxonalarni kirib ko‘rishga, ular faoliyati bilan tanishishga harakat qiladi.

Prezidentimizning xorijiy davlatlarga hamda turli mamlakatlar rahbarlarining yurtimizga rasmiy tashriflari chog‘ida oliy martabali mehmonlarga kitob sovg‘a qilishlari xayrli an’ana tusini olgan. Muhimi, ularning aksariyati davlatimiz rahbarining So‘zboshisi bilan chop etilgan. Prezidentimiz, shuningdek, “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini nashr etish g‘oyasini ilgari surgani ham barchamizga ma’lum. Ushbu ezgu tashabbus asosida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ulkan loyiha – 100 jildlik kitoblar turkumi nafaqat turkiy dunyo, balki jahonning uzoq-yaqin boshqa mintaqalarida ham katta qiziqish uyg‘otdi.

Mamlakatimizda turli yosh toifalari o‘rtasida “Yosh kitobxon” tanlovining o‘tkazilishi, unda g‘olib bo‘lganlar Prezident sovg‘asi sifatida yengil avtomashina bilan taqdirlanishi aholida kuchli qiziqish va rag‘bat uyg‘otmoqda.

Bularning barchasi O‘zbekistonda kitobxonlik masalasi davlat e’tiboridagi muhim masala bo‘lib, bu borada shaxsan mamlakat rahbari bosh targ‘ibotchi ekanidan, mutolaa madaniyatini yuksaltirish yurtimizda umummilliy harakatga aylanayotganidan dalolat beradi.

## “YOSH KITOBXON” TANLOVINING SHOV-SHUVI

O‘zbekiston Prezidentining yuqorida tilga olingan Farmoyishi qabul qilinishi, shu yildan boshlab “Yosh kitobxon” tanlovining o‘tkazilishi, unda g‘olib bo‘lganlar Prezident sovg‘asi – yengil avtomashina bilan taqdirlanishi yaxshi ma’noda shov-shuv uyg‘otganini barchamiz kuzatdik.

Yoshlar ishlari agentligidan olingan ma’lumotga ko‘ra, 2017-yildan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi orqali qariyb 5 millionga yaqin yoshlar qamrab olingan. Tahlillarga ko‘ra, kitob do‘konlari va kutubxonalarda eng ko‘p izlanayotgan kitoblar ham “Yosh kitobxon” tanlovida e’lon qilingan 140 nomdagi adabiyotlar ekani ma’lum bo‘ldi. Bu o‘z o‘rnida kitob bozorida talab va taklifning ortishiga ham xizmat qilmoqda.

2017-yildan buyon 280 nafar yosh kitobxon tanlovning respublika bosqichida ishtirok etgan bo‘lsa, shundan 20 nafari g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Prezident sovg‘asi sovrindori bo‘lgan. E’tiborli jihati, tanlovda g‘olib bo‘lgan 17 nafar qizning 7 nafari keyinchalik O‘zbekiston Prezidenti tomonidan davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Demak, kitob ularning keyingi taqdiriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xo‘sh, jamiyatimizda kitobga bo‘lgan e’tiborni tubdan o‘zgartirgan ushbu muhim madaniy voqealardan so‘ng kitobxonlik darajasining o‘zgarishini kimdir yoki qaysidir tashkilot jiddiy o‘rganib, tahlil qilib chiqqanmi?

## “IJTIMOIY FIKR” NIMA DEYDI?

Endi, bevosita mana shunday ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazishga ixtisoslashgan “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markaziga murojaat qilsak. Xo‘sh, Markazda bu borada qanday ma’lumotlar bor?

Afsuski, Markaz ushbu qizg‘in voqealar jarayonida kitobxonlik darajasining o‘zgarishini o‘rganmagan. Faqat, bu voqealardan ancha keyin, ya’ni 2021-yil yanvar-fevral oylarida O‘zbekiston yoshlarining kitob mutolaasiga munosabati, badiiy adabiyotga moyilliklari va qiziqishlarini o‘rganish bo‘yicha telefon so‘rovi vositasida tadqiqot o‘tkazgan ekan.

Tadqiqot **18** yoshdan **35** yoshgacha bo‘lgan respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan, ularning 60 foizdan ko‘prog‘ini erkaklar va **40** foizga yaqinini xotin-qizlar tashkil etgan.

So‘rovda ishtirok etgan yoshlarning **47,1** foizi kitob o‘qishi, **52,9** foizi kitob o‘qimasligi aniqlangan. Kitob o‘qiydiganlar o‘rtasida talaba va o‘quvchilar, dekret ta’tilida bo‘lganlar, doimiy ishga ega bo‘lganlar ko‘pchilikni tashkil qilgan. O‘qimaydigan respondentlarning ko‘pchiligi ishlamaydi, uy bekasi va erkin ishlovchilar hisoblanadi.

Gender kesimida qizlar va yosh ayollar (**50,8** foiz) o‘smirlar va yosh yigitlarga qaraganda ko‘proq o‘qishi namoyon bo‘lgan (**44,7** foiz).

“Siz kitob o‘qishning qanday usulini maqbul ko‘rasiz?” degan savolga **73,5** foiz respondent bosma kitob deb javob bergan. Qolganlar: **13,9** foiz elektron kitoblarni, **8,3** foiz telefon yoki planshet orqali o‘qishni, **2,4** foiz audio kitobni va **1,1** foiz barcha mumkin bo‘lgan usullarni tanlagan. Demak, bosma kitob avvalgidek mutolaaning eng ommaviylashgan usuli bo‘lib qolmoqda.

Respondentlarning qariyb yarmi (48,1 foiz) Internetdan kitoblarni qidirish va yuklab olish uchun manba sifatida foydalanishini, ikkinchi qismi (42 foiz) kitob o‘qishda o‘zi uchun Internet hech qanday rol o‘ynamasligi, ular faqat bosma kitoblarni sotib olishi va o‘qishini ma’lum qilgan.

Kitobni uyda o‘qiydiganlar **85,3** foiz, o‘qish yoki ishda o‘qiydiganlar **15,5** foiz, kutubxonalarda mutolaa qiladiganlar **8,6** foizni tashkil etgan. Transportda ketayotganda (1,9 foiz), tabiat qo‘ynida (1,1 foiz) o‘qishni xush ko‘ruvchilar ham yo‘q emas. Respondentlarning asosiy qismi – **61,2** foizi o‘zbek mumtoz va **29,9** foizi zamonaviy o‘zbek adabiyotini ma’qul ko‘rsa, qolganlar xorijiy adabiyotlar ixlosmandlari ekan.

Albatta, jamiyatning ijtimoiy kayfiyati va ruhiyatini anglash hamda tahlil qilish, shu asosda kelgusi maqsad va rejalarni belgilashda bu kabi so‘rovlar g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi jamiyatimizda kitobxonlik darajasini muntazam o‘rganib, natijalarini doimiy e’lon qilib borsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi, deb o‘ylaymiz.

## DARVOQE...

“Milliy tiklanish” gazetasining shu yil 19-noyabr sonida **“AVTOMOBIL BOZORIDAGI holat o‘rganilyapti, KITOB BOZORIDAGI ahvol esa yo‘q!”** nomli maqola e’lon qilindi.

Muallif Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining O‘zbekiston avtomobil bozoridagi holatni – har bir detal, hatto arzimas ko‘rsatkichlargacha chuqur tahlil o‘tkazganini ta’kidlar ekan, shunday yozadi:

**“Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: jamiyatda ta’lim tizimi, yoshlarning bilim darajasi, tafakkuri haqida avtomobillardan ko‘ra ko‘proq gapirilayotgan bir paytda nega kitoblar sotuvi haqida shunday tahlillar qilinmayapti? Agar har oyda milliy kitob bozorlari faoliyati yuzasidan viloyatlar, shahar va tumanlar kesimida tahlillar o‘tkazilib, bu bozorda qaysi viloyat peshqadam-u, qaysi hudud orqada qolayotgani ko‘rsatib berilganida, balki ushbu sohada ham jonlanish yuz berarmidi?”**

O‘rinli taklif. O‘ylaymizki, “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi hamda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bu taklifni, albatta, inobatga oladi.

## KITOBLAR YETISHMAYDIMI?

Ayni vaqtda O‘zbekistondagi jami ommaviy kutubxonalar, shaxsiy kutubxonalar, tashkilotlar, kitob do‘konlarida qancha nomda, qancha kitob fondi mavjud? Bir yilda mamlakatdagi kitob do‘konlari va bozorlari orqali qancha nomda va tirajda kitob sotiladi? Mana shu raqamni taxminiy bo‘lsa-da, hisoblash mumkinmi?

Davlat statistika agentligiga berilgan bu kabi savollarga javob tariqasida agentlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan olingan 2023-yilgi ma’lumotni taqdim etdi.

Mazkur ma’lumotga ko‘ra, respublikada jami **13 ming 46 ta** axborot-kutubxona muassasalari mavjud. Ularda **43 million 493 ming 497** nomda jami **71 million 131 ming 175 ta** kitob fondi bor.

Eng ko‘p kutubxona Samarqand viloyatida – 1 ming 511 ta, eng kam kutubxona – Sirdaryo viloyatida – **468 ta.**

Jami foydalanuvchilar soni **11 million 396 ming 50** nafar – asosan **14–24 yosh** atrofidagi kitobxonlar.

**21 ming 714** nafar kutubxonachi, jumladan, **18 ming 173** nafar ayol mutaxassislar faoliyat olib boradi.

## BOSHQA TIZIMDAGI TASHKILOTLARDA QANCHA KITOB BOR?

Keling, imkon qadar kitobga, ma’naviyatga yaqin sohalardagi kutubxonalar fondi va ularning kitobxonlarini bir qur hisoblab chiqaylik.

Avvalo, respublikamizdagi bosh kitob maskani bo‘lmish Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining bebaho xazinasiga bir nazar tashlaylik.

Bugungi kunda Milliy kutubxonaning umumiy fondi **8** million **183** ming **235** nusxadan tashkil topgan. Shundan kitoblar **5** million **479** ming **605** nomda. Jumladan, **7** million **142** ming **691** nusxa bosma nashrlar, **1** million **40** ming **544** nusxa elektron kitoblar mavjud.

Milliy kutubxonaning doimiy a’zolari soni **120 mingga** yaqin. Ular safiga har yili **32-36 ming** yangi a’zolar qo‘shiladi.

Kutubxona har yili o‘rtacha **16–18 ming** dona kitob (majburiy nusxa va xarid) qabul qilib oladi. Bu ko‘rsatkich oxirgi yillarda oshib bormoqda.

* * *

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, bugungi kunda jami **10 ming 134 ta** maktabda **10** ming **103** ta kutubxona mavjud. Bu kutubxonalar **16** million **346** ming **826 ta** badiiy adabiyot fondiga ega. Respublika bo‘yicha **6** million **542** ming **493** nafar o‘quvchining **5** million **512** ming **267** nafari kutubxonalarga a’zo.

Afsuski, har yili byudjet mablag‘lari hisobidan maktablarga kitoblar ajratish tizimi mavjud emas. Har yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan **15–20 ming** dona kitob homiylik asosida ajratilmoqda.

* * *

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, respublikada mavjud **182 ta** oliy ta’lim muassasalarida (davlat va xususiy) **205 ta** axborot-resurs markazi mavjud.

Oliy ta’lim muassasalarida jami talabalar soni 1 million 562 ming 330 nafardan ortiq. Tizimdagi axborot-resurs markazlari fondida esa **3 million 762 ming 973** nomda **23 million 672 ming 907** nusxada adabiyotlar mavjud.

Har yili tizimdagi kutubxonalar uchun **50 mingga** yaqin adabiyot kirim qilinadi. Kitoblar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktyabrdagi **“Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida”**gi 816-sonli qaroriga asosan xarid qilinadi.

* * *

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining fundamental kutubxonasi, shuningdek, akademiya tarkibidagi **20 ga** yaqin institutlar tizimida **4 million 436 ming 897 ta** kitob fondi mavjud.




* * *

Raqamli texnologiyalar vazirligidan olingan ma’lumotda ko‘rsatilishicha, ayni vaqtda “ZiyoNET” ta’lim portalida **769 ta** elektron va **763 ta** audio kitoblar mavjud. Ulardan doimiy foydalanuvchilar **47** ming **681** nafarni tashkil etadi.

Vazirlik tizimidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazining umumiy bosma fondi 2024-yil holatiga ko‘ra, **47** ming **192** nomda – **336** ming **968** nusxani tashkil etadi. Shulardan, o‘quv adabiyotlari **7** ming **53** nomda – **198** ming **168** nusxa, ilmiy adabiyotlar **26** ming **956** nomda – **111** ming **600** nusxa, badiiy adabiyotlar **11** ming **725** nomda – **18** ming **471** nusxa va turli nashrlar **1** ming **458** nomda – **7** ming **729** nusxani tashkil etadi.

Markazning elektron resurslar fondida **35** ming **277** nomda adabiyotlar, jumladan, darslik va qo‘llanmalar, badiiy va ilmiy adabiyotlar, maqola va dissertatsiyalar mavjud. Ularning barchasi markaz saytiga joylashtirilgan. Joriy yilda **2** ming **314** nomdagi adabiyot raqamlashtirilgan..

* * *

Madaniyat vazirligi tizimida jami **1** ming **438 ta** muassasa, jumladan, **41 ta** teatr, **49 ta** konsert-tomosha muassasasi, **837 ta** madaniyat markazi, **367 ta** ta’lim muassasasi, shuningdek, **144 ta** ko‘zi ojizlar kutubxonasi faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu tashkilotlardagi kutubxonalar fondida **2** million **233** ming **909 ta** kitob bor. Kutubxonalarga so‘nggi **2** yilda jami **319** ming **189 ta** kitob xarid qilingan bo‘lib, yangi kitoblarning **157** ming **164 tasi** davlat byudjeti, **4** ming **316 tasi** byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan hamda **130** ming **386 tasi** homiylik xayriyalari va **27** ming **322 tasi** boshqa tartibda olingan.

* * *

Din ishlari bo‘yicha qo‘mitadan olingan ma’lumotda ko‘rsatilishicha, ayni paytda O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi fondida **3 ming 133** dona qo‘lyozma kitoblar, **9 ming 216** dona toshbosma kitoblar, **6 ming 867** dona yangi nashr qilingan arab tilidagi adabiyotlar va **2 ming 865** dona yangi nashr qilingan o‘zbek tilidagi adabiyotlar mavjud. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan **15 ta** diniy konfessiyalarda **42** ming **756** nomdagi **108** ming **624** dona adabiyot mavjud.

2023-yilda yurtimizda **1** ming **48** nomda diniy adabiyotlar nashr etilgan bo‘lsa, 2024-yilning shu kuniga qadar **1** ming **77** nomda shunday adabiyotlar chop qilingan. Shu bilan birga, **15 ta** diniy konfessiya tomonidan 2023-yilda **8** nomdagi kitob **16** ming **200** nusxada, 2024-yilda **2** nomdagi kitob **4** yarim ming nusxada nashr etilgan.

* * *

**Endi mamlakatimizdagi eng katta tizimlardan biri bo‘lgan O‘zbekiston mahallalari uyushmasining ma’lumotlariga e’tibor beraylik:** hozirgi vaqtda respublika bo‘yicha **9 ming 452 ta** mahallaning **5 ming 226 tasida** kutubxonalar tashkil etilgan. Bu ziyo maskanlarida **260 mingdan** ortiq kitob bor. Ularning fondi homiylar hisobidan shakllantiriladi.

* * *

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi **31 ta** sanatoriyning barchasida kutubxona mavjud. Ulardagi umumiy kitob fondi **57 ming 780 ta**ni tashkil etadi. Har yili bu kutubxonalarga **15-20** nomdagi yangi badiiy adabiyotlar, ijtimoiy-siyosiy, sohaga oid kitoblar xarid qilinadi. Shuningdek, Federatsiya tizimidagi **77 ta** bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida **75 ta** kutubxona tashkil etilgan bo‘lib, ularning umumiy fondi **42 ming 342 ta** adabiyotdan iborat. Yozgi mavsumda oromgoh kutubxonalari qo‘shimcha kitoblar bilan ta’minlanadi.

* * *

Masalaga nashriyotlar misolida qaraydigan bo‘lsak, sohadagi yirik muassasa – birgina “Sharq” NMAKda yiliga **100-120** nomda, **150 ming**ga yaqin tirajda kitoblar nashr etilmoqda.

***

Kitob sohasidagi peshqadam muassasalardan hisoblanmish O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi **tomonidan 2018–2023-yillar mobaynida 512** nomda **1** million **310 ming**ta kitob chop etilgan. **Jumladan, joriy yilning o‘zida 49 nomda 146 mingdan ziyod adadda kitoblar nashr qilindi.**

## QIZIQ MA’LUMOT

Mavzuni o‘rganish jarayonida Davlat bojxona qo‘mitasidan qiziq ma’lumot oldik. Qarangki, bu tizimda xorijiy davlatlardan respublikaga kirib keladigan kitoblar soniga emas, vazniga qarab hisoblanar ekan.

Qo‘mita xabariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasiga:

2023-yilda **13 ming 769 tonna;**

2024-yilning 10 oyida esa **7 ming 779 tonna** kitob mahsulotlari import qilingan.

2023-yilda kitoblarning salkam **7,8 tonna**si, 2024 yilda esa **13 tonna**sini turli lug‘at va ensiklopediyalar tashkil qilgan. Kitoblar dunyoning **36 ta** davlatidan keltirilgan.

## SHAXSIY IBRAT KO‘RSATAYOTGANLAR

Odamlarimiz orasida kitobga chin ma’noda mehr qo‘ygan insonlar, shukrki, ko‘pchilikni tashkil etadi. Buni shaxsiy mablag‘lari hisobidan o‘z maktabi, qishlog‘i, mahallasi uchun kutubxona tashkil qilayotgan yurtdoshlarimiz misolida ham ko‘rish mumkin.

Masalan, Andijon viloyatining Marhamat tumanida tadbirkor Qobiljon Obidov tomonidan bunyod etilgan uch qavatdan iborat zamonaviy “Kelajak nuri” kutubxonasida **50 ming** nusxadan ziyod kitob va **300 mingdan** ortiq elektron adabiyotlar mavjud. Bu yerda **10 ta** ish o‘rni ham yaratilgan.

Kutubxona **30 dona** eng so‘nggi rusumdagi zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan. Kompyuterlar internet orqali O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va viloyat axborot kutubxona markazi tarmog‘iga ulangan. Kutubxona bir vaqtning o‘zida **300** nafardan ziyod kitobxonga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Kitobxonlarga qulaylik yaratish maqsadida “Book” kafe tashkil etilgan. Mazkur ziyo maskanida turli tanlovlar, zakovat o‘yinlari, atoqli adiblar bilan uchrashuvlar, kitob taqdimotlari va adabiy kechalar o‘tkazib kelinmoqda.

Taniqli shoir Barot Isroil o‘zi istiqomat qilayotgan Ohangaron tumanining Toshsoy qishlog‘idagi hovlisida shaxsiy mablag‘i hisobidan ikki qavatli kutubxona qurdirgan. Kutubxonaning birinchi qavati to‘laligicha katta o‘quv zali (bir vaqtning o‘zida 80 nafar kitobxonga xizmat ko‘rsatadi), ikkinchi qavati esa kitob fondi, ko‘rgazma zallari, kichik qiroatxonadan iborat. Kutubxonada 10 mingdan ziyod kitob bor.

Kuni kecha gazetada o‘qidim. Jizzax viloyatining chekka Jiydali qishlog‘ida yashovchi Nargiza Qo‘shmonova “Nima uchun faqat men kitob o‘qiyman? Nega boshqa qishloqdoshlarim bu ne’matdan bebahra qolishi kerak?” degan ezgu niyat bilan o‘z qishlog‘ida “Umid” nomli mo‘jazgina kutubxona tashkil qilibdi, mingga yaqin kitob to‘plabdi. Omadini bersin.

## ENDI HISOBLAB CHIQAYLIK

Esda tutaylikki, yuqorida keltirilgan fakt va raqamlar – imkon qadar yig‘ilgan ma’lumotlar, xolos. Hali bizning hisobimizga kirmay qolgan kitoblar qancha.

Xalqimiz kitobni sevadigan, ma’rifatparvar xalq. Demak, xonadonlarda, atoqli ilm-fan va madaniyat namoyandalarining uylaridagi mavjud kitoblar soni ham salmoqli miqdorni tashkil etishi shubhasiz.

Endi bor ma’lumotlar asosida xomaki hisob-kitob qiladigan bo‘lsak, ayni vaqtda mamlakatimiz kutubxonalarida **128 million 692 ming 867 ta** kitob mavjud. Yana xorijdan kirib keladigan 21 tonnadan ortiq kitob mahsulotlari ham bor.

O‘zbekiston aholisi 2024-yilning 1-oktyabr holatiga ko‘ra, **37,4** million kishilik nufusga ega. Shundan hali faol kitobxonlik davriga kirmaydigan **0-7** yoshdagi bolalar **7** millionga yaqinni tashkil qiladi. Demak, xalqning kitob o‘qiydigan **30 milliondan** oshiqroq vakiliga kamida 128 million 692 ming 867 ta kitob to‘g‘ri keladi.

O‘zingiz ayting, yana shu holda ham kitob yetishmaydi, deb da’vo qilishga haqqimiz bormi?

## AFSUSKI...

Bir paytlar, mustaqillikning dastlabki davrlarida, eslasangiz, kutubxonalarni mafkuraviy yaroqsiz kitoblardan tozalash harakati bo‘lib o‘tgan edi. Chunki sobiq tuzum davrida chop etilgan aksariyat kitoblar istiqlol g‘oyasiga to‘g‘ri kelmas edi. O‘sha davrlarda man-man degan adiblarning 10 tomlik tanlangan asarlaridan faqat birgina-oriqqina jildi kelgusi davrga o‘tishga muvaffaq bo‘lganini ham ko‘rdik. “Uzumni shirin qilgan Partiyaga ming rahmat” qabilidagi sobiq kompartiyaga va “dohiy bobolar”ga qarata aytilgan hamd-u sanolar bilan limmo-lim asarlar o‘z umrini yashab bo‘lgan edi.

Bunday “asar”lardan voz kechilgani yaxshi, albatta, lekin hazrat Alisher Navoiy bobomiz: “Bo‘rk o‘rnida bosh eltur”, deganlaridek, bugungi til ta’biri bilan aytganda, “salla desa, kalla olib keladiganlar”ning “sharofati” bilan birgina “O‘zSSR davlat nashriyotida chop etildi” degan tamg‘a tufayli qanchadan qancha o‘zbek va jahon mumtoz adabiyoti namunalari ham makulaturaga topshirib yuborilgani achinarli. Agar shu “tozalash” kampaniyasi oqilona tarzda tashkil etilganida edi, mamlakatimizning kitob fondi yanada ko‘proq bo‘lardi.

## AHOLIDA, OILALARDA QANCHA KITOB BOR?

Buni biz bilmaymiz. Hartugul, barcha mavjud kutubxonalar fondidan kam bo‘lmasa kerak. Chunki ashaddiy kitobxon yurtdoshlarimiz ko‘p.

Birgina misol. O‘zbek adabiyotshunoslik fani rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan taniqli olimlardan biri Suvon Meli badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik, falsafa va ezoterikaga oid **60 ming**dan ortiq kitob to‘plagan.

O‘zim ham javonlarimga sig‘magan kitoblarimning bir qismini o‘qigan maktabimga, qolganini mahallamizning yangi ochilgan kutubxonasiga sovg‘a qildim. O‘qiyman degan odamga kitob topib berish kerak, degan fikrda qiziqadiganlarga kitob tarqataman. Uyda eng zarur va qadrdon kitoblarim qolgan, lekin shular ham oila a’zolarimizning har biriga **10–15 tadan** to‘g‘ri keladi.

## UYINGIZDA KITOB BO‘LSA – MA’NAVIY BOYSIZ

O‘tmishda – kitoblar hali ommaviy adadlarda chiqmaydigan, qo‘lda sanoqli nusxalarda ko‘chirilaadigan va shu bois juda qimmat sotiladigan bir zamonlarda uyida kitobi bor xonadon moddiy jihatdan boy hisoblangan. Hozir kitobi bor oila ma’naviy boy hisoblanadi.

Atoqli o‘zbek adibi Abdulla Qahhor: **“Xonadonda chiroq bo‘lmasligi mumkin. Lekin kitob bo‘lmasa, bu go‘shaning kunduzlari ham zimistondir”,** deb yozadi. Kim ham xonadoni zimiston bo‘lishini xohlaydi, deysiz.

## YANA BIR MUHIM MA’LUMOT

O‘zbekiston Chingiz Aytmatov, Maxtumquli asarlari eng ko‘p nashr etiladigan mamlakatlardan hisoblanadi. Bundan faxrlansak arziydi.

Chingiz Aytmatovning farzandi Eldor Aytmatovning xotirlashicha, mashhur adib har gal O‘zbekistonda kitobi nashr etilganida, “Qirg‘izistonda kitobim chiqsa, 4-5 million odam o‘qiydi, O‘zbekistonda kitobim chiqsa, 22 milliondan ziyod odam o‘qiydi”, deb juda xursand bo‘lar ekan.

## KUTUBXONALAR FONDINI BOYITISH UCHUN QANCHA MABLAG‘ AJRATILMOQDA?

Iqtisodiyot va moliya vazirligidan olingan ma’lumotga ko‘ra, 2024-yilda respublikamizda mavjud davlat kutubxonalari hamda axborot-kutubxona muassasalarining kitob fondlarini to‘ldirish va yangilash xarajatlari uchun davlat byudjetidan qariyb **21,4 milliard** so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan.

Xususan, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi uchun 1**0 735,1 million,** axborot-kutubxona markazlariga **8 910,8 million,** ko‘zi ojizlar kutubxonalari uchun **1 440,8 million,** pedagogika kutubxonasi uchun **144,4 million,** Respublika bolalar kutubxonasi uchun **80,0 million,** tibbiyot kutubxonalari uchun **77,7 million** so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan.

## O‘RNI KELGANDA BIR FIKR

Yaqinda gazetada Jizzax viloyat axborot-resurs markazi (bolalar kutubxonasi) rahbari Anvar Yo‘ldoshevning shunday fikrini o‘qib qolgandim:

***“2006-yil 20-iyunda “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga asosan shu paytga qadar Madaniyat vazirligi tasarrufida bo‘lgan kutubxonalar ikkiga ajratildi. Viloyatlardagi ommaviy (universal) kutubxonalar Aloqa vazirligiga, tuman markaziy kutubxonalari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga, bolalar kutubxonalari esa Xalq ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi va Axborot-resurs markazlariga aylantirildi.***

Menimcha, bunda vazirliklarning davlat byudjetidan oladigan ulushi va byudjetdan tashqari topgan mablag‘laridan bir qismi kutubxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilishi nazarda tutilgan bo‘lsa kerak. Ammo amalda kutubxona bilan aholi o‘rtasidagi rishtalar uzildi. Eng achinarlisi, Xalq ta’limi tizimidagi kutubxonalarning ahvoli yaxshilanmadi.

Qizig‘i keyin boshlandi. Kutubxonalarning Aloqa vazirligi tasarrufida bo‘lishi unchalik ham to‘g‘ri emasligi ma’lum bo‘lgach, bunga tezda chora topila qoldi. Ya’ni, kutubxonalar nomiga “axborot” so‘zi qo‘shildi.

Qarabsizki, Axborot-kutubxona markazi (AKM) paydo bo‘ldi. Bolalar kutubxonalari esa Axborot-resurs markazi (ARM) deb yuritila boshladi. Kutubxonachilar bir yumalab madaniyat xodimidan aloqachiga va ta’lim tizimidagilari texnik xodimga aylandilar.

# O‘QING!



Dunyoning hech bir mamlakatida kutubxonaga “axborot” so‘zi qo‘shilmagan va biz bu borada birinchi bo‘ldik... Kitobxonni “foydalanuvchi”, elektron kitoblarni “ma’lumotlar bazasi” deb ataydigan bo‘ldik. Hamma zamonlarda ham kutubxona mutolaa maskani bo‘lgan. Kutubxonalarga 4-5 ta kompyuter o‘rnatilsa, axborot markaziga aylanib qolmaydi. Bu vositalarning o‘z vazifasi bor, ya’ni kitobxon kitob so‘rab kelsa, bu asarning qog‘oz varianti bo‘lmasa, elektron varianti bilan kitobxonni ta’minlash yoki o‘sha asarni boshqa kutubxonalardan topish imkonini beradi (bu sohada mualliflik huquqiga zid bo‘lgan harakatlar ham yuzaga keladi).

Respublikamizdagi mavjud kutubxonalar o‘z nomi bilan yuritilishi tarafdorimiz. Majburlab tiqishtirilgan “axborot” so‘zini olib tashlash kerak. Har doim kutubxonalar ommaviy kutubxonalar, bolalar kutubxonalari, ta’lim muassasalari kutubxonalari... deb atab kelingan, AKM yoki ARM deb emas.

Barcha kutubxonalarni bitta tizimga birlashtirsak, samaradorlik yuqori bo‘ladi.

## YANGI KITOBLAR

Yuqorida hisoblangan **128 million 692 ming 867 ta** kitobga har yili yana kamida **40–45 million**ta kitob qo‘shilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma’lumotiga ko‘ra, ayni paytda respublikada **602 ta** noshirlik subyekti faoliyat olib boradi. Shundan **54 ta**si, ya’ni **9** foizi davlat ulushiga ega bo‘lsa, qolgan **548 ta**si, ya’ni **91** foizi xususiy sektorga tegishli. Bu ko‘rsatkich **2020**-yilda – **168** ta, **2021**-yilda – **252** ta, **2022**-yilda – **364** ta, **2023**-yilda – **458** tani tashkil qilgan. Noshirlik sohasida faoliyat boshlagan tadbirkorlik subyektlari soni **2020**-yilga nisbatan qariyb **3,5** barobar, ya’ni **364** taga oshgan. Demak, nashriyotlar soni har yili o‘rtacha **100** taga ko‘payib bormoqda. Nashriyotlar sonining oshib borishi, albatta, kitoblar sonining ham oshishiga olib keladi.

Bir yilda mazkur nashriyotlar tomonidan, e’tibor qiling, **2023**-yil davomida **15** ming **867** nomda salkam **40** million nusxa; **2024**-yilning 10 oyi davomida **12** ming **770** nomda qariyb **45 million** nusxa adabiyotlar nashr etilgan.

## OZGINA LIRIK CHEKINISH

***“Qalb tarbiyasi degan narsa bor,*** – deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli shoir Eshqobil Shukur. – Qalbni tarbiyalash adabiyotning juda katta vazifasi. Qalb tarbiyalandimi, insonda hamma narsa tarbiyalanadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning kitobini o‘qiyapsiz yoki bolanagiz o‘qiyapti. Bolangiz-ku, bolangiz, o‘zingiz tarbiyalanasiz o‘sha paytda. Sizga hech qachon Abdulla Qodiriy nuqib o‘rgatmaydi, o‘z-o‘zidan, tabiiylik bilan tarbiyalaydi. Sahifama-sahifa qalbingizni, fikringizni, tafakkuringizni, didingizni tarbiyalab boradi. Shuning uchun ham kitobning qadri muhim.

Yaqinda Ozod Sharafiddinovning bir gapini o‘qib, qoyil qoldim. Bolalar aynib ketyapti, yoshlar yomon bo‘lib ketyapti, deyapmiz. Nima qilish kerak, deyapmiz. Buning arzon va juda oson yo‘li bor. Hamma bolalarni kitobxon qilish kerak. Bolaga kitob o‘qishni o‘rgating, shunda boshqa ortiqcha xarajatlarning keragi ham bo‘lmay qoladi. Kitob o‘qiydigan bola boshqacha bo‘ladi. Shuning uchun adabiyotning vazifasini har qanday vaziyatda ham esdan chiqarmasligimiz kerak”.

## KITOB SAVDOSI

Yuqorida respublikada **602 ta** noshirlik sub’yekti faoliyat olib borayotganini aytib o‘tdik. Xo‘sh, ular nashr etgan kitoblar kitobxonlar qo‘liga qay tarzda yetib boradi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma’lumotiga ko‘ra, yangi nashr etilayotgan kitoblar respublika hududida faoliyat yuritayotgan **682 ta** kitob savdo do‘konlari orqali sotiladi. Shu bilan birga, **30 ga** yaqin nashriyot va kitob savdo do‘konlari tomonidan joriy etilgan yetkazib berish xizmati hamda onlayn savdo platformalari orqali ham kitob sotuvi yo‘lga qo‘yilgan.

## KITOB SAVDOSI MUTAXASSISLARINING FIKRI

Bir vaqtlar binoyidek ishlagan “O‘zdavkitobsavdo” davlat unitar korxonasi bugungi kunda past samaradorlik bilan ishlayotgani uchun faoliyati to‘xtash arafasida.

Bozor iqtisodiyoti shundayki, unda bo‘shliq bo‘lmaydi. Avvalgi kitob savdosi tizimi tugayotgan bo‘lsa, hozir bu soha tabdirkorlar qo‘liga o‘tgan. Xususan, 2003-yili tashkil etilgan “O‘zdavkitobsavdota’minot” MChJ xususiy korxonasi barqaror ishlab kelmoqda. Tashkilotning yillik savdosi ayni vaqtda o‘rtacha 4 milliard so‘mni tashkil etayotgani, o‘ylaymizki, birgina mana shu raqamning o‘ziyoq, odamlar kitob sotib olayotgani, demak, o‘qiyotganini ko‘rsatadi

**“O‘zdavkitobsavdota’minot” MChJ xususiy korxonasi direktori Shahzod Nazarov shunday deydi:**

***“Umumiy hisoblaganda, bugungi kunda O‘zbekiston bo‘yicha kitob savdosi yiliga o‘rtacha 240 milliard so‘mni tashkil etadi.*** Shundan 120 milliard so‘mlik kitob savdosi maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga to‘g‘ri keladi. Qolgani boshqa tizimlar va aholi hissasiga to‘g‘ri keladi.

***2019-yilda O‘zbekistonda kitob savdosi mustaqillik yillaridagi eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan.*** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitob masalasiga alohida e’tibor qaratgani natijasida o‘sha yili kitob sotuvlari hajmi oldingi yillarga nisbatan 30-35 foizga ko‘tarilgan. Biroq keyinchalik koronavirus pandemiyasi, ***2020-yildan soliq imtiyozining bekor qilinishi*** tufayli yana savdo hajmi pasaya boshladi. O‘sha yildan kitob do‘koni qurish yoki kitob do‘koni uchun ijara to‘lovlarida imtiyozlar olib tashlandi. Natijada kitob do‘konini yuritayotgan tadbirkor spirtli ichimliklar do‘koni to‘laydigan darajadagi ijara haqini to‘lolmay qoldi.

***2020-yilda nashriyot faoliyati uchun litsenziya talabining bekor qilinishi kitob nashr etish*** ishlarini biroz jonlantirdi. Garchi holat **2019-yildagi** darajaga qaytmagan bo‘lsa-da, yangi kitoblar soni orta boshladi. Ana shu yangilikning mevasi sifatida 2024-yilda yangi kitoblar nashr etilishi bo‘yicha ko‘rsatkichlar ancha yaxshi bo‘ldi. Misol uchun, oldingi yillarda umumiy nashr etilayotgan kitoblar orasida yangi asarlarning hissasi 10-15 foizdan oshmas edi. Asosan qayta nashr etilgan kitoblar bo‘lardi. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 30-35 foizni tashkil qildi.

Men shu sohada faoliyat yuritayotgan inson sifatida kitob targ‘iboti bo‘yicha davlat buyurtmasini tashkil qilishni taklif etaman. Kitob targ‘ibotiga bag‘ishlangan ijtimoiy roliklarni ta’sirchan zamonaviy shakllarda televideniye, radio va internet orqali tizimli berib borishni yo‘lga qo‘yish kerak. Ayni qaysidir kitobni emas, umuman, kitob o‘qishni targ‘ib qiladigan reklamalarni ko‘paytirish zarur. ***Misol uchun, ma’naviyat sohasiga ajratilayotgan 64 milliard so‘mlik byudjet mablag‘larining 5 milliardi shu roliklarga ajratilsa***, yaxshi natijaga erishsa bo‘ladi. Bu ishga tadbirkorlar ham o‘z mablag‘lari bilan hissa qo‘shishga tayyor. Lekin davlat qo‘llovisiz tadbirkorlarning o‘zlari buni qilolmaydi.”

* * *

Kitob savdosi bo‘yicha tilga tushib kelayotgan yana bir muassasa – “Asaxiy” internet do‘konining “Asaxiy Book” bo‘limi orqali oyiga o‘rtacha 1**00 mingta,** chorakda **300-350 ming,** yiliga esa **1 million**dan ortiq kitoblar sotilmoqda ekan.

Zangiota tumanidagi, xalq tili bilan aytganda, “Kanstovar bozori”ni hammamiz yaxshi bilamiz, lekin bu savdo maskanida, masalan, bir kunda qancha kitob sotiladi – buni bilmaymiz.

* * *

Endi “Kitob markazi” va “Kitob dunyosi” savdo tarmoqlari rahbari Shuhratjon Oxunjonovning fikrlariga quloq tuting:

“Yoshlar kitob o‘qimaydi, degan fikr xato. Ular kitob o‘qiydi, aksincha, biz kitob sohasida ishlaydiganlar ularga yangi va sifatli kitoblarni yetkazib berishda oqsayapmiz, xolos.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kitobxonlikni rivojlantirish masalasiga qaratayotgan alohida e’tibori yurtimizda chinakam o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Xususan, davlatimiz rahbarining 2017-yil 13-sentyabrda qabul qilgan kitobxonlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi qaroridan ruhlangan holda, men “Kitob olami” xususiy korxonasini tashkil etganman. Tashkilotimizda 100 ga yaqin odamni ish bilan ta’minlaganmiz. 2016-yilda tashkilotimizning bir yillik pul aylanmasi 43 million so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu ko‘rsatkich 4 milliard so‘mdan oshdi.

Bugun mamlakatimiz bo‘ylab o‘nlab “Kitob markazi” va “Kitob dunyosi” deb nomlangan tarmoq savdo markazlarimiz bor. Korxonamiz aholi va yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida hududlarda turli tanlovlar o‘tkazib keladi. ***Masalan, birgina 2021-yilning o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlaridagi kitobxon o‘quvchilar uchun jami 10 ta avtomobil hamda ko‘plab nominatsiyalar bo‘yicha qimmatbaho sovg‘alar taqdim etildi. Viloyatlardagi barcha uy ta’limidagi bolajonlarga homiylik asosida qiziqarli kitoblar berdik.*** Hozirgi kunda doimiy ravishda “Eng kitobxon maktab” va “Eng kitobxon oila” loyihalari doirasida chekka qishloq va mahallalarda ijodiy uchrashuv hamda kitob yarmarkalarini o‘tkazyapmiz.

Bugungi kunda tashkilotimiz doirasidagi kitobsevarlar soni 3 millionga yetdi. Nasib qilsa, 2025-yilga borib doimiy kitobxonlarimiz sonini 10 millionga yetkazmoqchimiz. Bugun men 100 nafarga yaqin yoshni ish bilan ta’minlagan bo‘lsam, ikki yildan keyin mana shu 100 nafar yoshning har biri kamida 100 nafardan tengdoshiga ish beradi. Men bunga qat’iy ishonaman.

Kitob orqali nafaqat moddiy jihatdan yutuqlarga erishdim, balki insonlarga ziyo, ma’naviyat tarqatishdek sehrli olamga kirib keldim. Ehtimol, ayrim tanishlarim aytganidek, kitob o‘rniga boshqa biznes bilan shug‘ullanganimda, bundan bir necha barobar ko‘proq daromadga ega bo‘lishim mumkin edi. Ammo bugun men yurakdan his etayotgan, insonlarga ma’rifat ulashishdek baxt va huzurni topa olmasligim aniq. Shuning uchun ham hech qachon kitob dunyosini tark etmayman. O‘zbekiston – kitobxonlar yurti!”

* * *

Kitob savdosi bo‘yicha amerikalik taniqli adib Archibald Maklishning ham ibratli fikri bor:

***“Kitoblar, haqiqiy kitoblar o‘z-o‘zidan sotilib ketmaydi. Kitobning muqovasi qanchalik chiroyli bo‘lmasin, unda kitobning mazmun-mohiyati qanchalik mahorat bilan aks ettirilgan bo‘lmasin, kitobning tashqi ko‘rinishi odamlarda uni albatta sotib olib o‘qib chiqish kerak ekan, degan fikrni uyg‘otolmaydi.***

Haqiqiy kitoblar ularning qanday kitobligini biladigan va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan odamlarning g‘ayrat-shijoati tufayli sotiladi. Bu g‘ayrat-shijoat esa avvalo kitobni varaqlab chiqayotgan o‘quvchini ishontirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Eng hurmatli tanqidchi yozgan eng benazir taqriz ham o‘quvchining o‘quvchi bilan gurungidan kamroq foyda keltiradi. Bunday gurunglarda esa har doim o‘z kitoblarini ham, o‘z xaridorlarini ham yaxshi biladigan kitobchi eng obro‘li suhbatdosh sanaladi.

Agar kitob savdosida shunday sotuvchilar qolmasa, bu savdo hamma narsani ulkan va yorqin reklama plakatlari hal qiladigan, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik haqida esa olingan daromadga qarab baho beriladigan sovun yoki konserva savdosi kabi oddiy, o‘rtamiyona savdoga aylanadi”.

## TARG‘IBOT ISHLARI QANDAY OLIB BORILMOQDA?

Albatta, aholi, jumladan, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni ommalashtirish va rag‘batlantirishda turli targ‘ibot tadbirlarining muhim o‘rni bor. Biz kitob targ‘iboti bo‘yicha olib borilayotgan ishlar holatini uch tashkilot – Yoshlar ishlari agentligi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyati misolida o‘rgandik.

* * *

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 2017-yildan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan **“Yosh kitobxon”** tanlovi haqida yuqorida aytib o‘tdik. Yosh oilalar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan **“Yosh kitobxon oila”** tanlovini o‘tkazish orqali **160 ming** kitobxon oila, shuningdek, **“Zukko kitobxon”** tanlovi orqali **80 mingdan** ortiq kitobxon qamrab olingan.

**“Mutolaa”** loyihasi doirasida **3 ming 200 dan** ortiq kitoblarning audio va elektron variantlari tayyorlanib, mobil ilovaga joylashtirilgan. Bugungi kunda **1,1 milliondan** ortiq kitobxon ushbu mobil ilovadan foydalanmoqda (**2 million 609 mingta** kitob o‘qilmoqda).

**“Yoshlar uchun ming kitob”** loyihasi doirasida jahon adabiyotining **50 nomdagi** eng sara ilmiy-ommabop kitoblari tanlab olinib, o‘zbek tiliga tarjima qilingan. **“Jadidlar”** rukni ostida **8 ta** kitobdan iborat to‘plam **23 ming** (jami **184 ming**) nusxada chop etilib, har bir ta’lim maskani, vazirlik, idora va muassasalar kutubxonalariga yetkazilgan.

Qomusiy olimlar, ma’rifatparvar allomalarning ilmiy va ma’naviy merosi haqida **“Uyg‘onish”** rukni ostida **7 ta** kitobdan iborat to‘plam **20 ming** (jami **140 ming**) nusxada chop etilib, ta’lim maskanlari, vazirlik, idora va muassasalar kutubxonalariga yetkazilgan. Milliy qahramonlarimizning bolalarga xos personajlarini yaratish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan **“Jasorat”, “Ildiz” va “Jajji akademik”** kitoblar to‘plamlari nashrga tayyorlangan.

**“Ma’rifat karvoni”** loyihasi doirasida **4 milliondan** ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berilgan.

* * *

Ayni paytda, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi va uning hududiy bo‘limlari tomonidan ham kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Joylarda besh tashabbus loyihasi doirasidagi **“Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Mushoira”, “Ibrat” chet tillari tanlovi”, “Mental”** va **“Zakovat”** loyihalari doirasida **4 ming 971 ta “Ma’rifat ulashib”, “Kitob karvoni”** aksiyalari tashkil qilinib, ta’lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarga adabiy-ma’rifiy mavzulardagi **48 ming 401 ta** adabiyotlar beg‘araz yetkazib berildi.

**“Besh tashabbus”** loyihasi doirasida **12 ta** oliy ta’lim muassasasida “**Uchinchi Renessans jadidlari – 2024**” kitobxonlik forumlari tashkil qilindi.

Shuningdek, **29 ming 139 dona** kitob Markazning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlariga yuborildi.

**“Mening ilk kitob javonim”** loyihasi doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotlariga **2 ming 200 dona,** joylarda ma’naviy-ma’rifiy soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan turli sohadagi yosh xodimlarga **“Eng yosh ma’naviyatchi – 2024”** tanlovi orqali **2 ming 500 ga** yaqin kitoblar sovg‘a qilindi.

**“Kitob o‘qish madaniyati oiladan boshlanadi”, “Ota-ona o‘z farzandiga yaxshi tarbiyadan boshqa meros qoldirmaydi”** kabi mavzularda **1 ming 630 ta** ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazilib, aholining keng qatlami o‘rtasida **“Kitob ulash!”** aksiyasi tashkil qilindi va **22 mingdan ortiq** kitob maktab, mahalla va oilaviy kutubxonalar va aholi vakillariga taqdim etildi.

**“Oyina.uz”** portalida **4 bosqichda “Kitoblararo 80 kun”** marafoni tashkil etildi.

* * *

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan kitobxonlik mavzusida badiiy-ma’rifiy tadbirlar muntazam tashkil qilinmoqda. 2018–2024-yillarda Uyushma homiyligida chop etilgan **1 million** nusxadan ziyod kitoblar mahallalar, ta’lim muassasalari, harbiy qismlar, Mehribonlik va Saxovat uylariga **“Kitob aksiyasi”** tadbirlari doirasida sovg‘a qilindi.

2021-yilda **100 jildlik “Rus adabiyoti durdonalari”,** 2022-yilda **100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari”** kitoblar majmuasi chop etildi.

**“Birinchi kitobim”** loyihasida 2010-yildan 2024-yilga qadar jami **201** nafar yosh ijodkorning **196** nomdagi kitobi **3** million 210 ming nusxada nashr qilindi.

Shuningdek, **16 jildlik “Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari”, 100 jildlik “Jahon bolalar adabiyoti xazinasidan”, “O‘zbek adabiyoti xazinasidan”** ko‘p jildlik asarlar majmuasi nashrga tayyorlanmoqda.

**Harbiy xizmatchilar va kursantlar qalbida vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat, mardlik va jasorat tuyg‘ularini mustahkamlash, ularning jangovar ruhini oshirish, bu borada ta’sirchan targ‘ibot ishlarini olib borishga qaratilgan “Mard askarga sovg‘a” turkumida 18 nomda ixcham kitoblar to‘plami nashr etildi.**

**Uyushmada muntazam ravishda yangi nashr etilgan kitoblar taqdimotlari o‘tkazib kelinmoqda.**

## YAXSHI KITOBLAR YO‘QMI?

Nega yo‘q bo‘lar ekan. Bugun yaxshi kitoblar yozilyapti ham, chop etilyapti ham. O‘qishga yaxshi kitoblar yo‘q, deya bahona aytguvchilarga ayrim misollarni keltirib o‘tmoqchimiz.

O‘zining asarlari va tarjimalari bilan jamiyatimiz tafakkurini bir pog‘ona yuksakka ko‘targan, bugun tabarruk yoshda ham faol ijod qilib kelayotgan atoqli adib va tarjimon, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov qalamiga mansub kitoblar soni **30 dan** oshiq ekan. Va ustozning yana shuncha miqdorda jahon adabiyotining eng sara namunalaridan qilgan tarjimalari bor – Dostoyevskiy, Mopassan, Xeminguey, Folkner, Aytmatov... Eh-he! Birgina Jeyms Joysning “Uliss” romanini o‘girishning o‘ziyoq har bir mohir tarjimon ijodiy faoliyatiga oliy maqom baxsh etadi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zamning nashr etilgan kitoblari soni **40 dan** ortiq. Birgina oxirgi 3 yilning o‘zida – 2021–2024-yillar oralig‘ida adibning **12 ta** kitobi nashrdan chiqqan. O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning kitoblari soni ham **40 dan** oshiq.

Bir o‘zi bir institutning ishini bajarayotgan ijodkorlarimiz, olimlarimiz bor. Masalan, ustoz shoir va olim Mirzo Kenjabek so‘nggi yillarda faol mehnat qilib, **20 dan** ziyod kitoblar yozgan, tarjima qilgan va nashrga tayyorlagan.

Yana bir zahmatkash tadqiqotchi Abdusattor Jumanazar tomonidan tayyorlangan kitoblarga razm soling: “Xilvat ahli”, “O‘rgimchak kitobi”, “Nasaf”, “Vaxshuvor”, “Mashrab”, “Buxoro ta’lim tizimi tarixi”, “Yakkabog‘”, “Tug‘li hikoyalar burji”, “Samarqand ta’lim tizimi va madrasalari tarixi”, “Qoratosh”, “Bulung‘ur” va boshqa so‘nggi yillarda chop qilingan **10 dan** ziyod to‘plamlar. Orada “Amir Abduahadxon. Feterburg‘ safari” tarjima asari nashr etilgan, respublika matbuoti va ilmiy to‘plamlarda **200 dan** ortiq maqolasi e’lon qilingan. Bulardan tashqari, tinib-tinchimas olim “Qissayi Shoh Mashrab”, “Qalqon qo‘shig‘i”, “Movarounnahr ilmiy markazlari”, “Armiya bilan hamqadam, hamfikr, hamnafas” kabi to‘plamlarda hamkorlik qilgan. Hozirgi paytda “Xorazm ta’lim tizimi va madrasalari tarixi” asari ustida ish olib bormoqda.

Zamonamizning zabardast adibi Isajon Sultonning oxirgi 3 yilda “Alisher Navoiy”, “Ma’suma”, “Bilga Xoqon”, “Abu Rayhon Beruniy” singari **5 ta** romani o‘quvchilar qo‘liga tegdi. Shuningdek, **5 ta** yirik asari xorijda nashr etildi, adabiy mukofotlarga loyiq topildi. Ayni paytda, yana **2 ta** yangi romani nashr arafasida.

Men bu ro‘yxatga hali iste’dodli shoirlarimizning o‘nlab she’riy to‘plamlarini kiritganim yo‘q. Bularning hammasi yaxshi, miriqib o‘qiladigan kitoblar.

## O‘ZIM MISOLIMDA AYTADIGAN BO‘LSAM...

Ayni paytda o‘qish niyatida ajratilgan o‘nlab eski va yangi kitoblar mening vaqtimni kutib turibdi. Agar ularning muxtasar ro‘yxatini zikr etadigan bo‘lsam ham, ko‘pgina oq varaqlarni qoralashga to‘g‘ri keladi.

Bir paytlar hazrat Alisher Navoiyning **10 tomlik** to‘la asarlar to‘plamini tugal o‘qib, undan kompyuterda **500** betga yaqin ko‘chirmalar olgan edim. Ularga doim ko‘z tashlab turganim bois, mutafakkir shoirimizning o‘lmas misralari xayolimda aylanib yuradi. Yaqinda to‘la asarlar to‘plamining elektron nusxasini topdim, yana mutolaaga sho‘ng‘idim. “Nasoyimul muhabbat”ni uchinchi qayta o‘qidim, turli nashrlarda... Fikrimcha, bu dunyoga birgina Alisher Navoiy asarlarini o‘qish uchun ham kelib-ketsang arziydi.

Mavzu doirasida bir taklif: Alisher Navoiyning **10 tomlik** to‘la asarlar to‘plami O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti tomonidan nashrga tayyorlanib, 2011-yili G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan. Yaqin odamingizga hadya sifatida bersangiz arziydigan muhtasham to‘plam. Lekin o‘qish uchun to‘g‘ri ma’noda og‘irlik qiladi – stolgami, xontaxtagami qo‘yib o‘qish kerak. Ko‘tarib yurish ham noqulay. 1983-yilda “Fan” nashriyoti shoir asarlarini **20 tom** ostida jamlagan, uni bugungi kunda topish qiyin.

Buyuk mutafakkir asarlarining qo‘lyozmalari va nashrlari taqdiri hamma zamonlarda ham shunday – qimmat va serhasham bo‘lgan, shekilli.

Alisher Navoiy ijodini xalqqa yaqinlashtirishni xohlar ekanmiz, avvalo, shoir asarlarini o‘qish va ko‘tarib yurish uchun qulay, ixcham shaklda nashr etish zarur, deb o‘ylayman. Bu, mayli, 50 jild bo‘lsin, lekin o‘zingiz bilan doim olib yurishga qulay – shakliyam, narxiyam cho‘ntakbop bo‘lsin.

## XAYRLI ISH

Yaqinda “Osmon yerga yaqin” nomli kitob qo‘limga tegdi – “Mikrokreditbank” ATB jamoasi va “Ijod NASHR” nashriyoti hamkorlikda yo‘lga qo‘ygan **“Chig‘anoq”** loyihasi doirasida chop etilibdi. Bank va nashriyot jamoalari yurtimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarga hissa qo‘shish niyatida mazkur loyihaga qo‘l uribdi. G‘oyat xayrli ish.

## ENG YAXSHI IBRAT – OILADA

***“Nimagaki erishgan bo‘lsam kitobdan minnatdorman, qaysidir xato ishdan qaytgan bo‘lsam ham,*** – deydi ijodkor va jurnalist Aziz Norqulov. – Esimni taniganimdan buyon uyimizda adabiyot, turli badiiy asarlar, ona tilimiz jozibasi, shevalar haqida gaplashganmiz. Otam o‘qituvchi bo‘lib ishlagani, o‘zi ham ijod bilan shug‘ullangani uchun uyimizda katta kutubxona doim bo‘lgan. Shu bois, eng yaxshi ibrat – oilada, deb bilaman. Bugun mendan ulgu olib, farzandlarimda ham kitobga qiziqish balandligini ko‘rib, xursand bo‘laman.

Hozirgi yoshlarga, ularning imkoniyatlariga va bundan unumli foydalanayotganlariga havas qilaman. Yoshlar kitob o‘qimay qo‘ydi, mutolaadan uzoqlashib ketdi, ma’naviyatni oshirish kerak, kabi gaplar ko‘p quloqqa chalinadi. Rostini aytish kerak, ko‘ngilni ko‘taradigan, umidni oshiradigan holatlar ham yetarlicha.

Milliy kutubxonamizga ko‘p boraman. Erta tongdan yoshlar kitoblarga muhr bosdirish uchun navbatda turganini ko‘raman. Men ham ular safiga qo‘shilaman. Ichkaridagi o‘quv zali doim to‘la bo‘ladi, kitobxon yoshlar sig‘may qoladi. Birinchi kirganimda joy topilmaganidan xursand bo‘lib ketganman. Kitob o‘qimay qo‘ygan yoshlardan noliydiganlarni shu dargohga olib kelib, ko‘rsatgim kelgan.”

## DONOLAR NIMA DEYDI?

**“Millatni bosma so‘z yaratishi” (B.Anderson), “Taraqqiyotning umumiy ko‘lamida har bir xalqning o‘rni o‘sha xalq o‘qiyotgan kitoblarning soni bilan belgilanishi”** (E.Labule) haqidagi fikrlarni o‘qigansiz.

Mashhur adib Xorxe Luis Borxesning ham kitob haqida e’tiborli fikri bor: **“Inson qo‘lidagi turli-tuman qurol-yarog‘, asbob-uskunalar orasida eng g‘aroyibi, shubhasiz, kitob sanaladi. Qolganlarini uning jismoniy davomi deyish mumkin. Mikroskop va teleskop – ko‘zning davomi, telefon – ovozning, omoch va qilich – qo‘lning. Biroq kitob – butunlay boshqa narsa, kitoblar – xotiralar va tasavvurlarning davomidir. Kitob odamzotning xotirasi xazinasidir”.**

**“Kitobni jonsiz buyum deb hisoblamaslik zarur, zero, kitob uni yaratgan dahoning salohiyatiga teng ravishda hayotiy kuch-qudratga ega”,** deb yozadi ingliz shoiri Jon Milton. Bu so‘zlar mavlono Jaloliddin Rumiyning **“So‘z insonning qiymati qadar qadrlidir”** degan lutfini eslatadi. Yana bir adib Aleksandr Genis bu fikrlarni boshqacharoq ifoda etadi: **“Biz yozuvchi asarini uning o‘zidan ko‘ra muhimroq deb hisoblaymiz, chunki u umrining eng yaxshi daqiqalarini asariga bag‘ishlagan”.**

Yapon yozuvchisi va mutafakkiri Daysaku Ikeda esa nafaqat yozuvchiga, ayni paytda kitobxonga ham jiddiy va to‘g‘ri talab qo‘yadi: **“Yaxshi o‘quvchi bo‘lish ham yaxshi yozuvchi bo‘lishday gap – bu har bir shaxs ko‘tarilishi lozim bo‘lgan ma’naviy maqom”.**

**“Garang odam birov gapirib berganiga qarab musiqaning sehrli kuchini anglamaganidek, men ham butun umr davomida bironta kitob o‘qimagan insonning fikrlash tarzini anglay olmadim”** – bu avstriyalik faylasuf yozuvchi Stefan Sveygning fikri. Haqqoniy fikr.

Hazrati Bobur o‘z vaqtida Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzoga ta’rif berib: **“Hech narsa o‘qimagan, omi kishi erdi, shul sababdin bor ixtiyori beklarining ilgida** *(qo‘lida)* **edi”,** degan nihoyatda chuqur ma’noli, hayotiy xulosani bayon etgan.

Qarang, ulug‘ ajdodimizning fikrida bizning zamonamiz uchun ham qanday ibratli jihatlar bor. Afsuski, kitob o‘qimasligi bilan maqtanadigan amaldorlar, pul topib, aqlu farosat topmagan “tadbirkor”lar oramizda yo‘q emas. Kitob o‘qimaslik – aqlning yalang‘ochligidan dalolat, kitob o‘qimasligi bilan maqtangan odam esa xuddi ko‘chada yalang‘och yurgani bilan maqtangan kimsadek bo‘ladi. Darvoqe, buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining mashhur “Padarkush” dramasiga “O‘qimagan bolaning holi” deya bejiz tagsarlavha qo‘ymagan!

## QISSADAN HISSA

Yaxshini yaxshi desang, yaxshiligi ortadi, yomonni yomon desang, yomonlikka tortadi. Chindan ham, G‘arb yozuvchilaridan biri aytganidek, kishiga cho‘chqasan deb aytaversang, oxir-oqibat u hurillab yuboradi.

Hech kim o‘qimayapti, deb o‘qiyotgan odamning ham hafsalasini pir qilmaylik, aksincha, o‘qimayotganlarni ham o‘qishga qiziqtiraylik. “Yo‘q-yo‘q” deyaverib, borini ham yo‘q qilib qo‘ymaylik. O‘qiyotgan insonlarni targ‘ib etaylik.

Hammamiz bilamiz, aksariyat odamlar tabiatan ergashuvchi bo‘ladi. Buni ijtimoiy tarmoqlardagi bir holatdan ham kuzatish mumkin. Odatda, qaysidir fikr yoki lavhaga birinchi bo‘lib izoh qoldirgan kishi o‘zidan keyingi deyarli barcha izohlarga o‘zan ochib beradi. Bitta-ikkita qarshi munosabatlar umumiy oqimda ko‘rinmay ketadi. Demak, kimdir hech kim o‘qimayapti, desa, boshqalar ham o‘qimay qo‘yishi, aksincha, hamma o‘qiyapti, deyilsa, odamlar o‘qishga mehr va ixlos qo‘yishi mumkin. Ayni mutolaa asnosida insonda ergashuvchanlik odati yo‘qolib, mustaqil fikrlash tuyg‘usi shakllanadi.

Qissadan hissa shuki, O‘zbekiston – kitobxon mamlakat, mamlakatimizda kitob fondi ham, kitobxonlar soni ham yetarlicha. Va da’vatimiz shundayki: bugun ko‘pchilik kitob o‘qiyapti, siz ham albatta o‘qing!

**Ikrom BO‘RIBOYEV**

TO‘RA SULAYMON TAVALLUDINING 90 YILLIGI

# SAYXUN BO‘YIDAGI MUAZZAM MASKAN

**Ayni kunlarda O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon tavalludining 90 yilligi mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlanmoqda. Kuni kecha Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi To‘ra Sulaymon yashagan xonadonda tashkil etilgan shoirning uy-muzeyi va haykali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.**




Poytaxtdan tashrif buyurgan bir guruh taniqli ijodkorlar hamda yurtimizning turli hududlaridan kelgan mehmonlar, shoirning yaqinlari va adabiyot ixlosmandlari ishtirok etgan ushbu marosim tom ma’noda adabiyot va ma’rifat ayyomiga aylandi.

Tadbirda so‘zga chiqqan Sirdaryo viloyati hokimi Akmaljon Mahmudaliyev yig‘ilganlarni qutlug‘ ayyom bilan tabriklab, o‘zining sermazmun asarlari bilan milliy adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan iste’dodli shoirning ijodiy merosi bugungi kunda ham yoshlarimizni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotganini alohida ta’kidladi.

– Hurmatli Prezidentimiz tashabbusi bilan Sirdaryo viloyatida O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymonning uy-muzeyi va muazzam haykali barpo etilgani mamlakatimiz adabiy-ma’rifiy hayotida katta voqea hisoblanadi, – dedi Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid. – Chunki barchamiz adabiyotimiz, ma’naviyatimiz ravnaqiga katta hissa qo‘shgan shoir To‘ra Sulaymon bilan qancha faxrlansak arziydi. Atoqli shoirning go‘zal va sermazmun asarlarida ilgari surilgan ezgu g‘oyalar kitobxonlarning ma’naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Sirdaryolik so‘z zargarining she’r va dostonlarini o‘qiganda ruhimizda, shuurimizda ajib o‘zgarishlar ro‘y berayotganini his etamiz. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu muzey yurtimiz ijodkorlari hamda adabiyot muxlislarining eng sevimli maskanlaridan biriga aylanishi shubhasiz.

Tadbirda so‘zga chiqqan To‘ra Sulaymonning qizi Yulduz Mengliyeva shoirning ijodiy merosini xalqimiz orasida keng targ‘ib qilish va uning xotirasini abadiylashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar uchun uning oila a’zolari nomidan davlatimiz rahbariga samimiy minnatdorlik bildirdi.

Ko‘tarinki bayramona ruhda kechgan tadbirda shoir haykali poyiga gullar qo‘yilib, adabiyot muxlislari uy-muzey faoliyati bilan yaqindan tanishtirildi.

Shu kuni Guliston shahridagi Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida To‘ra Sulaymon tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan “Quyoshga intilgan shoir” deb nomlangan adabiy-ma’rifiy xotira kechasi ham yuqori saviyada o‘tkazildi. Mazkur tadbirda O‘zbekiston Qahramoni, taniqli adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov va professor Qozoqboy Yo‘ldoshev xalqchil shoir ijodining o‘ziga xos qirralari haqida to‘xtalib o‘tishdi. Shuningdek, To‘ra Sulaymon hayoti va ijodiga bag‘ishlangan musiqiy kompozitsiya, taniqli xonandalar tomonidan uning she’rlari asosida ijro etilgan qo‘shiqlar hamda Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘quvchilarining badiiy chiqishlari kechaga o‘zgacha fayz berdi.

**Husniddin HAYITOV,**
**Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi**

JARAYON

# ADABIYOT, DO‘STLIK, QARDOSHLIK TARANNUMI

**Poytaxtimizda Turkiy tilli davlatlar ijodkorlari ishtirokidagi XVI Turkiy she’riyat festivali adabiyot, do‘stlik, hamjihatlik haftaligi sifatida baland ruhda o‘tkazildi.**

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda TURKSOY, TIKA kabi xalqaro tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan ushbu anjumanda bir qator turkiy tilli davlatlardan shoirlar ishtirok etdi.**

Mamlakatimizda adabiyot ahli TURKSOY tashkiloti bilan birgalikda ko‘plab yangi asarlar taqdimotlari, she’riyat va adabiyot bayramlari, kitob ko‘rgazmalari, adabiy muloqotlar, xalqaro anjumanlar muvaffaqiyatli o‘tkazib kelinmoqda. Ayni paytda bir qator o‘zbek ijodkorlarining asarlari turk va boshqa qardosh tillarga faol tarjima qilinmoqda. Bunday muloqotlar adabiy jarayon rivojida yangi ufqlarni ochishga xizmat qilishi shubhasiz.

Qardosh tillarda ijod qilayotgan shoirlar mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 jildlik majmuasining nashr etilishini adabiyotga bo‘lgan yuksak e’tibor sifatida alohida e’tirof etdilar.

Anjuman davomida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Turkiya Yozarlar Birligi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumi imzolandi. Ushbu hujjat o‘zbek va turk zamonaviy, mumtoz adabiyoti namunalarini ikki davlat kitobxonlariga yanada faolroq yetkazish, badiiy barkamol asarlarni tarjima qilish, ijod ahlining o‘zaro muloqoti uchun kengroq imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

She’riyat festivali ishtirokchilari poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi, bir qator muzeylar, ma’rifat maskanlari, tarixiy qadamjolarga sayohat qildi.

**Nazokat USMONOVA**

# “Bu bayramlar davom etajak”



**Musa KAZIM ARIJAN,**
**Turkiya Yozarlar Birligi raisi,**
**Anqara universiteti rektori,**
**professor:**

– Millatlararo do‘stlik aloqalarini rivojlantirishda adabiyot va san’at muhim ahamiyat kasb etadi. Toshkent, Samarqand va Buxoro ulug‘ mutafakkirlarni yetishtirib bergan ulkan ma’naviyat tarixiga ega shaharlardir. Shu nuqtai nazardan ushbu tadbirning O‘zbekiston poytaxti Toshkentda o‘tkazilgani adabiy maydonda juda katta voqea bo‘ldi.

O‘zbek adabiyoti o‘z davrida olamshumul ahamiyatga ega buyuk ijodiy meros yaratgan Alisher Navoiy kabi ulug‘ allomalarga ega muhtasham adabiyotdir. Shu bois bu yurtga safarga chiqqanimizdayoq turkiyalik ijodkorlarning yuzida chuqur hayajonni ko‘rdim.

Anjumanda Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Qirg‘izistondan kelgan shoirlar va o‘zbekistonlik ijodkorlar o‘zlarining go‘zal she’rlarini o‘qir ekan, biz adabiyotning kelajagi porloq ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildik. Bu adabiy aloqalarimizni yanada mustahkamlashni rejaladik. Shuningdek, navbatdagi she’riyat bayramlarida ishtirokchilar tarkibini kengaytirib borish haqida fikrlashdik. Yangi loyihalarni yuzaga chiqarish haqida kelishib oldik.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida bo‘lib o‘tgan “Alisher Navoiy va XXI asr she’riyati” deb nomlangan mushoira kechasi, “She’riyat kelajagi va sun’iy intellekt” mavzusida davra suhbati, “Turon” kutubxonasida o‘tkazilgan turk adabiyoti namoyandasi Mehmet Do‘g‘on, atoqli qirg‘iz shoiri Aliqul Osmonov hamda ulug‘ qozoq oqini Abay xotirasiga bag‘ishlangan adabiy kechalar qalblarimizni to‘lqinlantirdi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahrida bunyod etilgan muhtasham Adiblar xiyoboni barchamizda juda katta taassurot qoldirdi. U yerda biz O‘zbekistonning ardoqli shoirlari bilan yaqindan tanishdik. Kelgusida ushbu xiyobonda haykallari o‘rnatilgan mangulikka daxldor adiblarning ham xotira kechalarini o‘tkazishga qaror qildik.




**Altinbek ISMAILOV,**
**qirg‘iz shoiri:**

Men yurtingizga tez-tez kelib turaman. To‘g‘risi, O‘zbekiston o‘z uyimday bo‘lib qolgan. Bu jannatmonand o‘lkaning ko‘p shoirlari bilan hamkorligim bor. Ularning uylarida qo‘noq bo‘lganman, yurtimga borganlarini esa mehmon qilganman.

She’riyat bayramlari bahona yana do‘stlarim bilan diydorlashdik. Toshkent uchrashuvi o‘zgacha bir shukuh bilan o‘tdi. Adiblar bog‘ini ko‘rib, rosti, sizlarga havas qildim. Bu galgi xalqaro she’riyat bayramida ham har qardosh xalq shoiri o‘z tilida she’r o‘qidi. Qardoshlik yakdilligi sabab bizga tarjimon kerak bo‘lmadi. Ular bir-birlarining qalb kechinmalarini bemalol angladilar.


Bunday tadbirlarni davlatlararo keng miqyosda o‘tkazish oson emas. Shu ma’noda, biz ushbu tadbirni yuksak darajada uyushtirgan TURKSOY xalqaro tashkiloti va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga tashakkur izhor qilamiz.

Biz to‘rt kun davomida o‘zbek yozuvchilarining “Do‘rmon” ijod uyida yashadik. U yerda ham bog‘ kezib dillashdik, she’rlashdik. Ulug‘ ijodkorlarning izi qolgan bu tabarruk maskanda har bir shoirning yuragi she’r deb urdi.

Kelgusi yilda ushbu bayramni Qirg‘izistonda o‘tkazish rejalashtirilgan. Nasib etsa, biz ham bayramni yuqori saviyada o‘tkazish uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘ramiz.

YANGI ZAMON YOSHLARI

# “BIZ HAM DUNYOGA CHIQAYLIK”



**– Men, Zufarbek Abdurahmonov, yoshim yigirma oltida, yetti yildan buyon dasturlash bilan shug‘ullanaman. Toshkent axborot texnologiyalari universitetining kasbiy ta’lim fakultetida o‘qidim. Hozir bir nechta dasturiy loyihalar ustida jamoa bo‘lib ishlayapmiz.**

## O‘ZBEK TILI RIVOJI UCHUN

Sohada ilk o‘quv markazi ochgan yoshlardan biriman, desam bo‘ladi. Axborot texnologiyalari sohasiga qiziqqan yoshlardan yaxshi mutaxassis tayyorlash o‘z yo‘liga, lekin ularning kelajakda ishga joylashishini ham o‘ylash kerak. Xususiy IT kompaniyam ham bor. Turli dasturlar tayyorlaymiz. Masalan, vebsayt, telegram bot, mobil ilovalar va hokazo. Ishimiz jarayonni avtomatlashtirib, dasturiy vazifaga aylantirishdan iborat. Shuningdek, startap loyihalar ustida ham ishlaymiz. Ya’ni, ma’lum bir muammoga dasturiy yechim topamiz. Startap loyihalar dasturchidan iloji boricha muammoga tezroq yechim topishni talab qiladi. Masalan, eng ommabop ishlarimizdan biri Soff.uz loyihasi bo‘lib, uning asosiy vazifasi o‘zbek tilidagi kontentni rivojlantirishdir.

Masalan, sizga biror ma’lumot kerak bo‘lsa-yu, Google, Yahoo, Yandex dasturlaridan uning o‘zbekchasini izlab topolmasangiz, shu dasturimiz yordam berishi mumkin. Chunki bugun tarmoqlarda o‘zbekcha ma’lumot juda kam. Siz izlayotganingiz haqida to‘laroq bilish uchun uni rus yo ingliz tilida izlaysiz. Afsuski, o‘zbek tilida ba’zi narsalar haqida batafsil ma’lumot topolmaysiz. Mazkur dastur shu masalada yordam qiladi. Ya’ni, bizning dastur ko‘magida izlagan ma’lumotni o‘zbekcha topishingiz oson.

Hozir ikkita o‘quv markazimiz bor. Har olti-yetti oyda yuztacha o‘quvchimiz yaxshi mutaxassis bo‘lib chiqadi. Ularning 60-65 foizi o‘ziga munosib ish topadi. Chet el kompaniyalarida ishlayotganlari ham bor.

## YOSH DASTURCHILARGA MASLAHATLAR

Dasturchi bo‘laman, degan kishi ingliz tili va matematikadan yaxshi xabardor bo‘lsa, sohani o‘zlashtirishi yengilroq kechadi. Dasturlash aynan biror fanni mukammal bilishni talab qilmaydigan soha, aslida. Ammo tez fikrlaydigan, e’tiborli, chet tilini biladigan kishi bu sohani tezroq va mukammalroq o‘rganadi. Yosh dasturchi mantiqiy fikrlasa, masalaga tezroq yechim bera oladi.

Tajribadan ma’lumki, kompyuterda o‘yin o‘ynab, har xil ish qilib yurgan insonlar IT sohasini tez o‘rganib olishadi. Bugun ba’zi ota-onalar farzandi kompyuter qarshisida ko‘p o‘tirib qolsa ranjishadi, lekin buning foydali tomonlari ham bor. Ya’ni, bunday bolalarning dasturchi bo‘lish ehtimoli yuqori. Kompyuter o‘ynab ulg‘aygan bolaning fikrlash, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati kuchli bo‘ladi. Albatta, farzandingiz kompyuterda o‘yin o‘ynasa, qarshilik qilmang, demoqchi emasman. Faqat uning bu ishini nazoratga olib, yaxshi maqsadlarda foydalanishi va rivojlanishi uchun sharoit hozirlang.

Hozir biror kompaniyaga dasturchi kerak bo‘lsa, diplom emas, tajriba va natija so‘raladi. O‘z tajribamdan kelib chiqib aytsam, bir nechta IT kompaniya bilan ishladim, ular men bilan suhbatlashib, yaratgan dasturlarimni kuzatib, keyin ishga olishgan. Bu bilan diplom kerak emas, demoqchi emasman. Soha mutaxassisi bo‘lishda universitetlarning ham o‘rni katta. O‘qish davomida kimligingizni ko‘rsatish, muhitga kirish, unga moslashish, o‘qituvchilar bilan tajriba almashish, tanish-bilish orttirish o‘zini tanitish uchun kerak, deb o‘ylayman.

## YAXSHI MUTAXASSIS KO‘CHADA QOLMAYDI

Sun’iy intellekt paydo bo‘lgach, omma orasida endi dasturchilarga ish qolmaydi, bu kasb inqirozga uchrashi mumkin, degan vahima ko‘tarildi. Men o‘quvchilarimning bunday gaplariga xotirjamlik bilan javob beraman. Yaxshi mutaxassisning o‘rnini hech kim olib qo‘ya olmaydi. To‘g‘ri, sun’iy intellekt qaysidir ma’noda bo‘sh ish o‘rinlarini kamaytirishi mumkin. Lekin u hech qachon dasturchining o‘rnini bosolmaydi, aksincha, unga yordamchi bo‘ladi. Undan foydalanib, bir oyda tayyorlaydigan dasturni bir kunda yaratish mumkin. U nafaqat dasturchilikni, balki hamma sohani egallamoqda.

Bugun sun’iy intellekt yordamida chizilgan suratlarni, musiqiy kompozitsiyalarni, yozilayotgan she’rlarni ko‘rishingiz mumkin. U bilan raqobat qilish emas, aksincha, uni o‘z ishingizga sherik qilish kerak, xolos. Yana takrorlayman, sun’iy intellekt ishimizni olib qo‘ymaydi, balki yengillashtiradi. Faqat undan to‘g‘ri foydalanishni, u bilan birga ishlashni yo‘lga qo‘ya bilish kerak.

## OQ VA QORA...

Xaker so‘zi, aslida, informatsion texnologiyalar bo‘yicha favqulodda malakaga ega mutaxassis, kompyuter tizimini o‘ta chuqur biladigan shaxsga nisbatan ishlatilgan. Hozir esa xaker so‘zi kreker, ya’ni buzg‘unchi ma’nosida noto‘g‘ri ishlatilyapti. Bugungi kunda ayrim xakerlar o‘z siyosiy simpatiya va antipatiyalariga ko‘ra harakat qilib, kompyuter dasturlariga ataylab ziyon yetkazishadi. Aslida, bu jinoyatchilikning bir ko‘rinishi.

Jamiyatimizda bugungi kunda yaxshi (white) va yomon (black) xaker bor. Bir necha yil avval allaqaysi bank xaker hujumiga uchrab, katta summa yo‘qotganini eshitgan edim. Mana shu o‘g‘rilik ortida yomon xaker turibdi. Yaxshi xaker esa o‘sha black xaker qilishi mumkin bo‘lgan hujumlarning oldini oladi. Yomon xaker hujum qilishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni yopadi, xavfsizlikni taminlaydi. Hozirgi kunda yurtimizda bunday xakerlarga ish o‘rinlari ko‘paymoqda, asosan, bank sohasida. Talab ko‘paygani sari sohada o‘qishga va ishlashga qiziquvchilar soni ham ortmoqda. Bugun bu kasbning nomi xaker emas, xavfsizlik mutaxassislari deyiladi.

Hech qanday dasturning xavfsizligini yuz foiz ta’minlab bo‘lmaydi. Demak, omma e’tiboriga havola qilingan har qanday dasturning zaif joyi bo‘ladi. Xakerlardan himoyalash uchun gigant kompaniya asoschilari yilda bir marotaba katta musobaqa o‘tkazadi. Ya’ni, “kim mana shu dasturni buzib kira olsa, unga falon so‘m mukofot beraman”, deydi. Bundan maqsad – o‘sha gigant dasturlarning zaif nuqtalari, kamchiligini topish. Xakerlardan himoyalanish har doim ham zarur. Shu vaqtga qadar biz yaratgan dasturlar xaker hujumiga uchramadi, biz imkon qadar xavfsizlikni ta’minlashga harakat qilamiz.

## FRILANSERNING OSHIG‘I OLCHI

Bugun dasturchi ishlashi mumkin bo‘lgan yo‘nalish ko‘p. Ular faqat IT kompaniyalardagina emas, balki shu yerda turib xorij kompaniyalaridan buyurtma olishi ham mumkin. Dunyo miqyosida turli platformalar mavjud bo‘lib, ular orqali buyurtmachilarni izlashingiz va o‘zingiz haqingizda ma’lumot joylashingiz mumkin. Freelance – o‘z shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, masofaviy ishlash imkoniyati mavjud platforma. Shunday platformalarda ishlovchilar esa frilanser deb yuritiladi. Agar siz biron sohani chuqur bilsangiz va shaxsiy kompyuteringiz bo‘lsa, internet tarmog‘ingiz yaxshi ishlasa, bu platforma sizga uyda o‘tirib pul ishlash imkoniyatini yaratib beruvchi elektron bozor vazifasini o‘taydi. Bozor bo‘lganda ham, inson aqliy mehnati salohiyatini sotadigan bozor. Bu platformalarda dasturchi o‘zini tanitadi.

Demoqchimanki, dasturchilarga mijozlar faqatgina O‘zbekistonda emas, dunyo miqyosida ham topiladi. Shunchaki, siz yetuk mutaxassis bo‘lishingiz lozim. Shuni ham ta’kidlash kerakki, xorijlik buyurtmachilar o‘zbek dasturchilarini nihoyatda hurmat qilishadi. Sababi, biz ishimizni a’lo darajada bajarish bilan birga, boshqa davlatlardagidek katta narx qo‘ymaymiz. Insof sari baraka, deyishadi-ku. Shuning uchun bo‘lsa kerak, xorijliklar ko‘pincha bizni o‘zlari izlab topishadi.

## OQQAN DARYO OQADI

Kelajakda har qanday sohani dasturlar va robotlar egallaydi. Rivojlangan davlatlarda bu soha yetarlicha rivojlanganini ko‘rish mumkin. O‘zbekistonning ham rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi IT bilan bog‘liq, buning uchun yetuk kadrlar sonini ko‘paytirishimiz lozim.

Bu soha orqali ishsizlikni sezilarli darajada kamaytirish, mamlakatimiz iqtisodini yanada yuksaltirish mumkin. Asosiysi, chetga borib, qora ish qilishga ehtiyoj qolmaydi. Mamlakatimizning ko‘plab reytinglardagi o‘rni ko‘tariladi. Chunki dunyoda axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarga talab judayam katta. Bu talab oshsa oshadiki, aslo kamaymaydi. Siz-u biz, butun dunyo hozirda foydalanayotgan smartfonlarning paydo bo‘lishi-yu rivojlanishida buyuk vatandoshimiz Muhammad Xorazmiyning xizmati katta. Buni to‘laqonli anglashimiz, his qilishimiz, yoshlarga to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatib, rag‘bat berishimiz lozim. Qonimizda bor ekan, bizdan ham zo‘r dasturchilar, startapchilar, frilanserlar, robototexniklar chiqishi aniq. Yurtimiz kelajagi, rivoji biz yoshlarning qo‘limizda!

**Vasila HABIBULLAYEVA**
**yozib oldi**

# BO‘RONLARGA BO‘YIN EGMAGAN AYOL

Boshlanishi 1-sahifada.

Shuningdek, Germaniyada ta’lim olgan 70 nafar o‘zbek yigit-qizlarining yurtga qaytganlari ham mustabid tuzum qurboni bo‘ldi. Ular millatning ilmli, hur fikrli, insoniy qadr-qimmatga ega bo‘lishi tarafdori edi, xolos. Shum taqdir bu orzuni armonga aylantirib, orzumandlarni ajal tomon yetakladi.

Ularning oila a’zolari esa yaqinlarining na tirigi, na o‘ligidan xabardor, ta’na-dashnomlar, qiyinchiliklar girdobida yashadi. 1930–1950-yillarda “xalq dushmani”dan yaqinlarining yuz o‘girishi va buni matbuotda baralla e’lon qilishi “urfga kirgan” edi. Davr shuni talab qilar, kim “vatan xoini”dan voz kechmasa yo qamalar, yo ishdan chetlatilar edi. Fuqarolik huquqlari bekor qilinib, hayoti yanada qiyinlashardi.

Ayanchli taqdir egasi bo‘lgan qahramonimiz esa, boshiga qanday kunlar kelishidan qat’i nazar, turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan sadoqatiga gard yuqtirmay, ularga munosib farzand tarbiyalash umidida harakat qilgan.

Mahbuba Muhammedova 1908-yili Farg‘onada dunyoga kelgan. Dastlab otasi, mashhur jadid muallimlaridan biri Nurmuhammad Dadamuhammedov ochgan maktabda, keyin Toshkent xotin-qizlar bilim yurtida ta’lim oladi. Otasi farzandlarining ilmli bo‘lishiga jiddiy e’tibor qaratgan. Shuning uchun ham 17 yoshli Mahbubaxon 1925-yilda Moskvaga borib, maorif institutiga o‘qishga kirgan. 1930-yilda institutni tamomlab, Toshkentga qaytadi.

Shu orada Germaniyada tahsil olgan taniqli kimyogar olim Sattor Jabbor bilan Mahbubaxon bir-biriga ko‘ngil qo‘yadi. Ikki qalb, ikki orzu bir yo‘lda birlashadi. Ular 1931-yilda faqatgina baxt uchun emas, balki buyuk maqsadlarni birgalikda ro‘yobga chiqarish maqsadida oila qurishadi. Birin-ketin Dilbar, O‘rxon va O‘zxon ismli farzandlar tug‘iladi. Bu orada turmush o‘rtog‘ining taklifi bilan Mahbubaxon texnika institutiga ishga kirib, ilmiy izlanish bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Kunlar bir maromda o‘tardi. Er-xotin ilmiy izlanishlar bilan band edi. Ular olgan bilimlarini hayotga tatbiq etish, dorilfununda talabalarga ilm berish yo‘lida harakat qilayotgan edi. Ammo mamlakat osmonini qoplagan qatag‘onning qora bulutlari ushbu oila boshiga ham soya soldi.

1937-yil 8-yanvar kuni Toshkent meditsina instituti dotsenti Sattor Jabbor qamoqqa olindi. Uning aybdor ekanligini tasdiqlovchi biror dalil-ashyo bo‘lmasa ham hibsda saqlanib, tergov jarayoni muntazam davom etgan. U “Turkiston” aksilinqilobiy-millatchilik tashkiloti rahbarlari bilan aloqada bo‘lganlikda”, xorijdan o‘qishdan qaytgach, “sovetlarga qarshi



*Opa-singil Mahbuba va Matluba Muhammedovalar*

bo‘lgan chet el fuqarolari bilan muloqotda bo‘lganlik” va Toshkentdagi pedagogik faoliyati davomida “o‘qituvchi hamda talabalar o‘rtasida aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi gaplarni aytgan”likda ayblandi.

1938-yil 9-oktyabr kuni Sattor Jabbor Germaniyada tahsil olgan To‘lagan Mo‘min, Sulton Matqul, Xayriniso Majidova, Gulsum Rahimova va Ruqiya Xo‘jayeva bilan birga oliy jazo – otuvga hukm qilinib, qaror o‘sha kuni ijro etiladi.

Zamon urfi-taomiliga ko‘ra, uning turmush o‘rtog‘i Mahbuba Muhammedova ham, albatta, darrov qamoqqa olingan edi. U aybi nimada ekanligini bilmagan holda 1938-1939-yillarni hibsda o‘tkazadi. “Xalq dushmani” tamg‘asi bosilgan oilaning begunoh farzandlari esa bolalar uyiga topshirib yuboriladi. Mahbubaxon qamoqdan ozod bo‘lgan zahoti dilbandlari tomon yeldek uchadi, endigina 31 yoshga to‘lgan olima ayol ularni yakka o‘zi tarbiyalay boshlaydi.

“Xalq dushmani”ning ayoli deya qoralanganlarning hayoti bir umrlik kurash va cheksiz azobga aylangani bugun hech kimga sir emas.

Mahbuba Muhammedovaning boshiga ham ko‘p og‘ir savdolar tushdi. Toshkent to‘qimachilik institutining so‘ngi kursida o‘qiyotganida yashab turgan uyidan, tugash arafasidagi tahsil oxiriga yetmay, ta’lim dargohidan ham haydaladi. Ota uyidan panoh topgan Mahbuba keyinchalik markazqo‘m a’zosi Ivanovning aralashuvi bilan o‘qishni qayta tiklaydi. Institutni bitirib, Toshkent to‘qimachilik kombinatida ishlaydi. Farzandlari, qaynonasi, oilasi uchun kunni kun, tunni tun demay yeng shimarib mehnat qiladi. Urush yillarida direktor o‘rinbosari lavozimgacha ko‘tariladi. Lekin baribir u “ishonchli odamlar” qatoriga kiritilmaydi.

1953-yili Stalin vafot etdi. Qatag‘on siyosati “shaxsga sig‘inish davri” oqibati deya qoralandi va nohaq qamalib, otuvga hukm qilinganlarning nomi birin-ketin oqlandi. Bu yangilik Mahbuba Muhammedova va uning qaynonasi Kamola aya Mavlonxo‘jayeva oilasiga ham xursandchilik olib keldi. Ular 1956-yili O‘zbekiston markazqo‘mining birinchi kotibi N.A.Muhiddinovga Sattor Jabbor nomini oqlash haqida ariza yozdi. 1922-yili F.Xo‘jayev va T.Risqulovning Sattor Jabborni Germaniyaga o‘qishga yuborgani, uning sovetlarga qarshi unsur bo‘lmasdan, yaxshi o‘qib, ishlagani haqida ma’lumot to‘plandi. Nihoyat, 1959-yil 13-aprelda uning nomi oqlandi.

Oilaning barcha yo‘qotishlari, qiyinchiliklari va xo‘rlanishlariga oqlov xati chek qo‘ydi. Lekin inson yashar ekan, azob-uqubatlarga sabr qilib, umr kechiradi. Sattor Jabborning oqlanganlik xabari Kamola aya xonadoniga baxt, xursandchilik olib keldi. Turmush o‘rtog‘iga so‘nggi nafasigacha sadoqatda bo‘lgan Mahbuba Muhammedova hayot qiyinchiliklari tufayli kasallikka chalinib, 1978-yilning 28-sentyabrida vafot etadi.

Jadidshunos olim Sherali Turdiyevning izlanishlari sabab, bu oilaning keyingi taqdiridan xabardor bo‘lishimiz mumkin. O‘zxon Jabbor Toshkent arxitektura-qurilish institutining professori, O‘rxon Jabbor esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Mexanika institutining katta ilmiy xodimi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Uning rafiqasi Muhbira Jabbor Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universitetining chet tillar kafedrasida nemis tili bo‘yicha katta o‘qituvchi bo‘lib ishlagan bo‘lsa, nabiralari Sattor O‘rxon o‘g‘li Germaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasida xizmat qilgan. Sohila O‘rxon qizi esa nemis tili bo‘yicha mutaxassis bo‘lib yetishadi. O‘rxon Jabbor rafiqasi bilan Germaniyaga borib, otasi o‘qigan va yashagan yerlarni ziyorat qilib qaytgan.


Mahbuba Muhammedova haqiqiy sadoqat timsoli edi. U og‘ir damlarda ham turmush o‘rtog‘iga vafodor bo‘lib, el-yurtga foydasi tegadigan farzandlarni voyaga yetkazdi. Oila sha’nini saqladi, qiyin vaziyatlarda ham turmush o‘rtog‘idan kechmadi. Oila muqaddasligini ta’kidlaganda nasihat yoki rivoyatlardan ko‘ra Mahbubaxondek ayollarning hayot yo‘lini misol qilish eng to‘g‘ri yo‘ldir.

**Zebo RAHMATULLA qizi**

MUTOLAA

# XO‘RLIKDAN HURLIKKACHA...

**Asar muallifining ichki tuyg‘ulari, fikr va g‘oyalari o‘z qahramonlarining hislariga, xatti-harakatlariga qorishib ketgan**




**Yantoqning ildizi toshni ham yorib o‘ta olishi, toki suvga yetmagunicha o‘sib, chuqurlashib boraverishi tabiatning eng hayratlanarli hodisasi. U sahroda ham, tog‘-u toshlar orasida ham bemalol o‘sa oladi. Mayda yaproqlari to‘kilsa-da, ninachalarining bahordan qishga qadar yashab qolishida ham ajib hikmat bor. Ninachalar yantoq hayotini muhofaza etadi. Yulsangiz, barmoqlaringizga, bosib o‘tsangiz, oyoqlaringizga sanchiladi. Yaqinda Qayum Sobirovning “Ildiz” nomli asarini o‘qiy turib, yana yantoq yodimga tushdi.**

Mavridini topib, kitobni qunt bilan o‘qidim. Asar voqealari Ikkinchi jahon urushidan oldingi va keyingi davrlarni o‘z ichiga olgan. Qahramonlari har qanday xo‘rlig-u zulmdan qat’i nazar, faqat ezgulikka, ozodlikka intilib yashaydi. Ayniqsa, o‘z zamonasining jadidlaridan biri bo‘lgan Ko‘chimboy va xotini Xursanoylarning ichki iztiroblari, tortgan azoblari, orzu-havaslari, saodatli kunlar sari intilishlari shunday jozib tasvirlanganki, beixtiyor ko‘zingizga yosh keladi. Qattol tuzumning yolg‘onlaridan jirkanasiz, bo‘htonlaridan seskanasiz.

“Ildiz” qissasi urush va uning atrofidagi dahshatli voqealarni, soxta sotsialistik tizim yaratgan xo‘rliklarni qamrab olgan. Xalqimizning har qanday sharoitda ham faqat yaxshilikka intilishi, sof insoniy sevgi-muhabbatni qadrlay bilishi, farzandlarini komil inson qilib tarbiyalay olishi kabi fazilatlari muallif tomonidan sodda va ta’sirli qilib qog‘ozga tushirilgan.

Ko‘chimboy bilan Xursanoy yetti farzandni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Ularning qizi Muazzam bilan Sodiq esa o‘n bir nafar farzand ko‘rishadi. Ko‘chimboy katta Farg‘ona kanalini qazish ishlarida qatnashib, kunlik rejasini ortig‘i bilan uddalaydi. Biroq ishdan keyin namoz o‘qigani uchun Hoshim ko‘rning sotqinligi va adovati tufayli qattiq kaltaklanib, vafot etadi. Xursanoy esa erining vasiyatlarini bekam-u ko‘st ado qilib, jon beradi.

Ularning gapga chechan va soddagina qizi Muazzamning taqdiri ham onasinikiga o‘xshaydi. Ammo u o‘zining o‘limini, vaqti soati yetganini oldindan his qiladi. O‘limni tik qarshi oladi. Faqat ortida qolayotgan farzandlaridan ayrilgisi kelmaydi. Asar muallifining ichki tuyg‘ulari, fikr va g‘oyalari o‘z qahramonlarining hislariga, xatti-harakatlariga qorishib ketgan.

“Ildiz”ni o‘qigan kishi nima uchun asarga shunday nom qo‘yilganini qiyinchiliksiz anglab yetadi. Ko‘chimboy bilan Xursanoyning farzandlari, nevara-chevaralari bir qishloq aholisidan ham ko‘payib ketishadi. Ko‘chimboy mash’um davrlarda jadidlar kabi chin ozodlikni istagan bo‘lsa, nabiralari haqiqiy istiqlol havosidan to‘yib-to‘yib bahra olishadi. Otalarining aytganlariga, bilganlariga amal qilib yashashadi. Haqiqiy ildiz shu.

Asar davomida Katta Farg‘ona kanalining qazilishi, Ikkinchi jahon urushining fojialari bilan bog‘liq ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan ayricha misollar ham keltirilganki, bular “Ildiz”ning qimmatini oshirishi barobarida, muallifning o‘chmas tarix borasida ancha-muncha bilimga ega ekanligidan dalolat beradi.

Nomlash masalasida muallifning topqirligi, zukkoligi shundaki, asarni kelgan joyidan yana davom ettirishga imkoniyat saqlab qolingan. Ko‘chimboy bilan Xursanoylarning otgan ildizlari yanada kattalashadi, yanada chuqurlashadi. Bunday ildiz xuddi yantoqniki kabi toshni ham teshib o‘ta olishiga qissani o‘qigan kishilarda zarracha shubha uyg‘onmaydi. Bu borada muallif Qayum Sobirovning o‘zi ham xuddi jadidlar kabi aniq va teran fikr yuritgan, o‘tmishga munosib baho bergan.

**Normurod MUSOMOV,**
**jurnalist.**

JAHON AYVONIDA

**YERGA KICHIK ASTEROID KELIB URILDI**



Astronomlar taxminan 70 santimetr diametrli asteroidni Sibir osmonidagi atmosferada ko‘rishgan. Asteroid atmosfera qobig‘ida yonib ketib, olov shari hosil qilgan.

**BUKLANADIGAN GADJETLAR CHIQARILISHI MUMKIN**

Displey tahlilchisi Ross Yangning so‘zlariga ko‘ra, bukiladigan smartfonlar bozori mijozlarning



qiziqishi past bo‘lgani sababli to‘xtab qolgan, biroq Apple iPhone qurilmalarida shunday o‘zgarish qilishi mumkin.

Ross Yang yangilik qilish orqali bunday ko‘rinishdagi smartfonlar savdosi yana jonlanishiga umid bildirmoqda.

**QADIMIY TANGALAR TOPILDI**

Britaniyaning Vusster shahri yaqinidagi qurilish maydonidan Rim imperatori Neron (milodiy I asrda yashagan) davriga oid jami 1368 dona tanga topilgan. Topilmaning umumiy qiymati 100 ming funt-sterlingdan yuqori baholanmoqda.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, mo‘jizaviy topilma asrning eng muhim kashfiyotlaridan biri sanaladi.



Taxminlarga ko‘ra, tangalar Rim armiyasini don va chorva mollari bilan ta’minlagan boy dehqonga tegishli bo‘lgan.

**ODAM SHAKLIDAGI ROBOT TAQDIM ETILDI**

Optimus laqabli robot odamga o‘xshab harakat qilish, ikki oyoqda yurish va



lanadi va 20 kilogrammgacha yuk ko‘tara oladi. Shuningdek, turli vazifalarni bajara oladi. Robot taxminan 20 000 AQSh dollariga baholanmoqda.

XOTIRA AZIZ



# QATAG‘ON QURBONLARI

**(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).**

**Hamidjon Bobojonov** – 1880-yili Pop rayoni Chodak qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi hisoblangan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

**Alimbek Xidirov** – 1904-yili Jomboy rayoni Tatar qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lgan. Aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, uyida aksilinqilobiy adabiyotni saqlaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 20-avgustdan hisoblangan.

**Abduhakim Hotamov** – 1883-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Do‘kon mudiri bo‘lib ishlayotgan paytda hibsga olingan. Xaridorlar orasida ocharchilik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda, oziq-ovqat mahsulotlarini sotishni atayin kechiktirganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 11-sentyabrdan hisoblangan.

**Kubri Hamroyevich Abduqayumov** – 1886-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. 1931-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil surgunga hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtda O‘zbekiston kooperatsiya xomashyosida tayyorlovchi bo‘lib ishlagan. Doimiy ravishda qarshi targ‘ibot olib borganlikda, kapitalistik tuzumni maqtaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilib, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

**Mirza Bo‘ron Komilov** – 1897-yili Behbudiy rayoni Mirmiron qishlog‘ida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda o‘rmon qorovuli bo‘lgan. Qarshi stansiyasida 48 ishchi orasida otuv hukmini tashkil etganlikda, “Milliy ittihod” tashkilotining a’zolari bilan aloqada bo‘lganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

**O‘rinboy Do‘sov** – 1875-yili Piskent rayoni Piskent qishlog‘ida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” tashkilotiga rahbarlik qilgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Kolxozchilar orasida doimiy ravishda troskiychilik, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 16-avgustdan hisoblangan.

**Mulla Abdurashid Domulla Oxunov** – 1865-yili Piskent rayoni Piskent qishlog‘ida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda masjidda imomlik qilgan. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, bolalarni ruhoniylar maktablarida o‘qitishga chaqirganlikda, “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi bo‘lganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 15-avgustdan hisoblangan.

**Jalil Hidoyatov** – 1897-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda o‘rta maktabda o‘qituvchi bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Mag‘lubiyatchilikka oid aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 14-avgustdan hisoblangan.

**Hikmat Nig‘matov** – 1900-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun VKP(b) safidan o‘chirilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti Buxoro filialining a’zosi bo‘lgan. Fayzulla Xo‘jayev bilan yaqin aloqada bo‘lganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 20-avgustdan hisoblangan.

**Fedor Vasilyevich Vavilov** – 1883-yili Saratov oblasti Xvolinsk rayoni Shakovskoye qishlog‘ida tug‘ilgan. “Ittihodi islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda yo‘llarni ta’mirlash xizmatida ishlagan. Ishchilar orasida partiya va hukumat tadbirlarini kamsitishga qaratilgan aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm kilingan. Jazo muddati 1937-yil 29-sentyabrdan hisoblangan.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
**tarix fanlari doktori, professor,**

**Nigoraxon AKBAROVA,**
**ilmiy xodim**

**(Davomi kelgusi sonda).**

TARMOQLARDA NIMA GAP?



# KEYINGI BEKAT — “ADIBLAR XIYOBONI”

**Poytaxt jamoat transportlari orasida eng qulayi, shubhasiz – metro! Yozning saratonida salqin, qishning qahratonida issiq. Asosiysi, manzilga o‘z vaqtida yetib olish uchun arzon va qulay transport vositasi. Agar bir necha yil ilgari metro haqida yozganimda, shuncha qulayliklari orasiga, avtobusdan farqli o‘laroq, tirbandlik yo‘q, degan jumlani ham qo‘shgan bo‘lardim. Tirbandlik bo‘lgandan keyin bir nuqtaga ko‘zingni tikkan ko‘yi o‘qilgan yozuvni ming bora o‘qisang ham xuddi yangi biror narsa chiqib qoladigandek, yana tikilaverarkansan.**

Yangi olib kelingan metro vagonlari imkoniyatlari orasida katta va kichik monitorlar tirbandlikdan chalg‘ish uchun yaxshi ermak. U orqali yurtimizning turli go‘shalari madaniyatidan lavhalar berilishi bilan bir qatorda, bekatlar ketma-ketligini kuzatib borish imkoni yaratilgan. Bekatlar nomi ikkita tilda yozilgan. E’tiborimni har safar “Milliy bog‘” va uning rus tilidagi (agar shunday deyish joiz bo‘lsa) “Milliy bog” jumlalarining g‘alizligi chalg‘itaveradi. Yurtdoshlarimizning aksari rus tilida so‘zlashishni (qisman bo‘lsa-da) biladi. Hech bo‘lmaganda, tushunadi. Keling, “Milliy bog” so‘zidagi “bog”ni tarjima qilishga urinib ko‘ramiz. Lug‘at kitoblari va internet tarmog‘i orqali berilgan so‘rovimizga ko‘ra, “bog”ning o‘zbek tilidagi tarjimasi “xudo” ekani kelib chiqdi. Agar lug‘atlar bizni aldamayotgan bo‘lsa, metro bekatining nomi butunlay o‘zgarib ketayotganga o‘xshamayaptimi?! Agar poytaxtimiz metrosidan foydalangan xorijliklar ushbu nomning tarjima variantini o‘qisa qanday tushunar ekan?!

**TAKLIF**

Yuqorida lug‘atlarga murojaat qilganimiz “Milliy bog”ni “Milliy bog‘” bekatiga to‘g‘ri tushira olmaganim, balki o‘zimning aybimdir. Bundan bir necha yillar oldin ayni o‘sha bekatning nomi “Yoshlik” edi. Undan ilgariroq ham boshqa nom bilan atalganini yoshi ulug‘lar aytib yurishadi. Modomiki, ushbu bekat nomi bir necha marotaba o‘zgarishlarga yuz tutgan ekan, yana bir bora o‘zgartirish kerak, degan fikrdaman. Albatta, bu shaxsiy fikrim. Ayni mana shu bekatning chiqish joyida muhtasham “Adiblar xiyoboni” tashkil etilgan. Unda yigirmadan ortiq yaqin va uzoq o‘tmishda yashab ijod qilgan ajdodlarimiz haykallari kompozitsiya tarzida bir go‘shaga jam bo‘lgan. Asli ularning har biri nomi bittadan bekatga qo‘yishga loyiq fidoyilar. Kelajakda shunday ham bo‘lar, ammo ayni paytda, ular bamisoli bir oila bo‘lib jamlangan joyni bemalol “Adiblar xiyoboni” metro bekati deb atalsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Xiyobonda haykali qad rostlagan adiblarning sana bilan bog‘liq kunlarida uchrashuvlar, ochiq darslar va she’riyat kechalari o‘tkazilmoqda.

Ajabmas, yaqin kelajakda o‘sha tanish ovoz orqali “Ehtiyot bo‘ling, eshiklar yopiladi. Keyingi bekat “Adiblar xiyoboni” degan so‘zlar jaranglab tursa.

**Sherzod SHARIPOV**
*Facebook*

TAQDIMOT

# KO‘NGLI NOZIK, TABIATI FIDOYI

**San’atkor xalqi ijoddan boshqa narsa bilan qiziqmaydigandek, ko‘proq o‘z ichki dunyosi, asarlari, ijro etayotgan qo‘shiqlari, teatr, kino, televideniyedagi faoliyati bilan band bo‘ladi. Bu soha vakillarining ko‘ngli nozik, tabiati o‘zgacha bo‘lishi ham haqiqat. Bunday insonlarga rahbarlik qilish, ularning ko‘ngli bilan hisoblashish, qalbiga yo‘l topish mushkullik tug‘dirishi bor gap. Ijodkorlar jamoasini boshqarish uchun rahbar nafaqat soha bilimdoni, balki inson qalbini tushunishga qodir mehribon, samimiy shaxs ham bo‘lishi lozim.**



*“Baxtiyor Sayfullayev. So‘nggi nafasgacha” hujjatli filmidan lavha.*

Yaqinda ana shunday ustoz murabbiy, samimiy insonlardan biri hisoblangan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, professor Baxtiyor Sayfullayevning hayoti va ijodi haqida hujjatli film suratga olindi.

Respublikamizning turli hududlarida, Moskva, Sankt-Peterburg, Bishkek kabi xorij shaharlarida tasvirga olingan mazkur filmning dastlabki lavhalaridanoq tomoshabin ko‘z o‘ngida o‘zbek san’ati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan jonkuyar inson siymosi gavdalanadi.

Faoliyatini respublika yosh tomoshabinlar teatrida aktyor va rejissyor sifatida boshlagan B.Sayfullayev keyinchalik qator yillar Toshkent davlat madaniyat institutida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullandi. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda Konservatoriya rektori, madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari, madaniyat vaziri kabi mas’ul lavozimlarda ishlagan davrlarida ushbu yo‘nalishlarda malakali kadrlar tayyorlash, yurtimizda madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdi. U kishi hayotining so‘nggi yillarida Oliy Majlis Senatining yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi sifatida samarali faoliyat ko‘rsatdi. Bir so‘z bilan aytganda, Baxtiyor Sayfullayev tom ma’noda san’at va madaniyat fidoyisi edi.

– Bu inson o‘zining butun umrini milliy madaniyatimiz va san’atimiz ravnaqiga bag‘ishlaganini inobatga olib, ushbu filmni “Baxtiyor Sayfullayev. So‘nggi nafasgacha” deb nomladik, – dedi Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizayev film taqdimotida. – Baxtiyor aka ustozlariga mehrli va sadoqatli bo‘lgani bois o‘zi ham katta ehtirom topdi. U kishi juda nurli, ibratli umr kechirdi.



Filmda bir qator ustoz ijodkorlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlarining B.Sayfullayev haqida bildirgan fikrlari bu inson haqiqatan ham ibratli hayot kechirganidan dalolat beradi. Xususan, Madaniyat vaziri, taniqli san’atkor Ozodbek Nazarbekovning quyidagi e’tirofi fikrimizning dalilidir: “Oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirishimda Baxtiyor akaning hissalari katta bo‘lgan... Madaniyat vazirligida ish boshlaganimda ham u kishi menga alohida ishonch bildirgan edi. Madaniyat sohasidagi qonunchilik va boshqaruv masalalarini o‘rganishimda Baxtiyor akaning xizmatlari beqiyos bo‘ldi”.

Shuningdek, filmda B.Sayfullayevning tashkilotchi rahbar, ustoz sifatidagi fazilatlari, g‘amxo‘r oila boshlig‘i, mehribon, maslahatgo‘y ota sifatidagi qirralari ta’sirchan hayotiy lavhalarda ochib berilgan. Ayniqsa, ustozning ikki farzandi ham bugungi kunda milliy madaniyatimiz rivoji yo‘lida qizg‘in faoliyat ko‘rsatib, otasining ishlarini munosib davom ettirayotgani quvonarlidir.

“Baxtiyor Sayfullayev. So‘nggi nafasgacha” hujjatli filmi Azizbek Turdiyev ssenariysi asosida rejissyor Murodjon Odilov tomonidan suratga olingan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Firdavs Abduxoliqov filmga prodyuserlik qilgan. Poytaxtimizdagi Milliy kino san’ati saroyida ijodkor va ziyolilar, talabalar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirokida o‘tkazilgan mazkur film taqdimoti chinakam bayram tusini oldi.

**G.UMAROVA**

HAJVIYOT



# TILA TILAGINGNI, DEB QOLSA...

*Xotun qo‘yg‘an bir errayim tug‘ushqan ulpating bo‘lsa,*
*Halol ersa oning ilki, saning ham sunnating bo‘lsa.*

*Ayal zotin kiro‘rog‘a jamlab, quysa mag‘zavolar,*
*“Yasha, erkak!” deb pishanglar bermaka jur’ating bo‘lsa.*

*Mayxonadin choyxonag‘a sahar qaytsang oshikoro,*
*Choyxona bo‘lsa boshpanoh, mayxona xilvating bo‘lsa.*

*Qizilko‘z mirg‘azab qo‘qqis so‘rab qolsa hasbu xoling,*
*Qo‘yinda hujjating bo‘lsa, hujjatda suvrating bo‘lsa.*

*Burnig‘a ter toshsa oning, ki hujjat iskagan chog‘i:*
*Hokim sandin qarz olg‘oni haqinda tilxating bo‘lsa!*

*Tilxating o‘ng tomonida muhri bahaybat porlasa,*
*So‘l tarafda do‘q arolash zakonniy muhlating bo‘lsa.*

*Sharob zavodin eshigin tepib ochsang mardonavor,*
*Ketar chog‘i tovon birla yoparg‘a qurbating bo‘lsa.*

*Istirohat etsang magar Qo‘yluq bozorin yo‘rg‘alab,*
*To‘rva-xaltang bo‘g‘ozlansa, on qadar hurmating bo‘lsa.*

*“Ajal” xonish boshlag‘uncha xushxayolni sur, Xunob-o,*
*Vaqt g‘animat, .....* otlig‘ qip-qizil g‘urbating bo‘lsa.*

Mulla XUNOB

***** – o‘qig‘uvchi o‘z ko‘nglidagi ismni qo‘yib olar degan o‘yda nuqta chekildi (muallif).***

TILBILIM




**Hozirda ko‘pgina o‘zbek oilalarida yangicha arabcha yoki boshqa tillardagi ismlarni qo‘yish udum bo‘lgan. Ko‘pincha ota-onalar bunday ismlarning ma’nosi yoki qaysi tildan ekanligiga e’tibor qilishmaydi, muhimi, yaxshi jaranglasa, quloqqa yaxshi eshitilsa, ular uchun bu buyuk topilma.**

Shunday otlardan biri – Yasmina, Yasmin yoki Jasmin, “ismlar.com” degan bir saytda bu ismni – “jannat guli” deb izohlashibdi, bilmadim, bu gapni qayerdan olishgan. Mazkur saytda yozishlaricha, hozirda bu ismning O‘zbekistonda: “Yasmina, Yasminaxon, Yasminabonu, Yasminaoy, Jasmin” kabi shakllari bor ekan yoki sayt egalari o‘zbeklarga shunday ismlarni qo‘yishni tavsiya etishyapti. Afsuski, o‘zbek ismlari bilan shug‘ullanishday mas’uliyatli ishni zimmalariga olgan bu shaxslar yasmin “jannat guli” emas, mintaqamizning hamma joyida o‘sadigan yosuman guli ekanligi haqida o‘ylab ham ko‘rishmagan. Hech bo‘lmasa, Furqatning “Fasli navbahor o‘ldi” g‘azalini, mayli, o‘qishni qo‘ying, qo‘shig‘ini diqqat bilan tinglaganlarida, balki o‘zbek tilida bu gulning nomi “yasmin” yoki “jasmin” emas, “yosuman” bo‘lishini anglashgan bo‘larmidi:

*“Nastaran yuvib yuzni,*
*yosuman tuzib o‘zni,*
*Nargiz ochibon ko‘zni*
*intizori yoronlar”.*

Yoki lug‘atga murojaat etishlari ham mumkin edi, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “yosuman (f-t) – xushbo‘y, oq to‘p gulli dekorativ buta”, deb izohlangan. Bu gul nomini Bobur ham “Boburnoma”da tilga oladi: “Yana yosuman bo‘ladur oq, muni champa deydurlar. Bizning yer yosumanlaridin ulug‘roq va idi tundroq bo‘ladur”, ya’ni Boburning dalolat berishicha, yosuman guli Hind yerlarida ham o‘sar ekan, hindlar uni champa deb atasharkan, lekin bizdagi yosumanlardan balandroq, hidi o‘tkirroq ekan. Navoiy asarlarida ham bu gulning nomi “yosuman” va “yosmin” shakllarida uchraydi va Navoiy lug‘atida: “xush isli oq va sarig‘ tusli gul” deb izohlangan. Ammo adabiyotda hiylagar, makkor ayol ma’nosida Yosuman kampir obrazi ham bor.

“Yosuman”ning asli forscha bo‘lib, keyinchalik arab tiliga “yasmin” shaklida o‘zlashgan, arab tilidan esa ovro‘po tillariga “jasmin” bo‘lib o‘tgan.

**Abduvohid HAYIT**

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

**Bosh muharrir:**
Iqbol Mirzo

**Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:**
Humoyun Akbarov

**Mas’ul kotib:**
Shuhrat Azizov

**Navbatchi muharrir:**
Gulchehra Umarovaa

**Sahifalovchilar:**
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

**Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.**

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 823
Lotin yozuvidagi adadi – 11 902
Media kuzatuvchilar – 19 578
Buyurtma: G – 1240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**
**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz